

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
KOREYS FILOLOGIYASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: KOREYS TILIDAGI OT SO'Z TURKUMINI
O'RGANISH JARAYONIDA MADANIYATLARARO
MULOQOTNING O'ZIGA XOSLIKLARI**

522100-Filologiya

Bajardi: "Koreys filologiyasi" yo'nalishi

bitiruvchi talabasi Sidikova Robiya

Ilmiy rahbar: o'q. Shakirova Nilufar

Ilmiy maslahatchi: koreys kafedrasi dotsenti Kim N.D.

Toshkent-2014

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob. Koreys tilida ot soʻz turkumining tutgan oʻrni.....	7
1.1. Koreys tilidagi ot soʻz turkumining oʻziga xosliklari.....	7
1.2. Koreys tili ot soʻz turkumining semantik jihatdan klassifikatsiyasi.....	16
2-bob. Madaniyatlararo muloqotni koreys tilidagi mustaqil otlar misolida oʻrganish	31
2.1. Koreys tilidagi mustaqil otlar milliy madaniy semantikasini koreys ovqatlari misolida koʻrib chiqish.....	31
2.2. Koreys kiyimlar leksimasi misoli yordamida koreys tilidagi mustaqil otlar semantikasining milliy oʻziga xosliklarini oʻrganish.....	38
2.3. Koreys millatining oddiy hayot tarzi, bayramlari va urf-odatlariga oid otlarining semantik tahlili	43
Xulosa	46
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	48

KIRISH

“Til – jamiyatning mavjudligi shartlaridan biri. Til – milliy madaniyat unsurlaridan hisoblanadi. Uni moddiy vositalardan ayri holda tasavvur qilib bo’lmaydi.” Bundan xulosa shuki, til madaniyatning ajralmas qismidir. Har bir millat va xalqning noyobligi uning tilida va bu uning ming yillar davomida shakllangan o’z tarixi, o’z madaniyatida namoyon bo’ladi. Tildan boshqa hech bir hodisa millatning o’ziga xosliklarini to’la ochib bera olmaydi. Til – inson tafakkuri ko’zgusi. Har bir davlat o’z milliy tiliga ega.

Til va madaniyatning o’zaro munosabati – ko’p qirrali murakkab masala. Turli tillarning namoyondalari bir vaqtning o’zida turli madaniyatlarning namoyondasi hamdir. Madaniyatlararo muloqot esa, birinchi o’rinda til ko’prigi orqali amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, o’zga madaniyat egasi bilan bo’lib o’tadigan har qanday muloqat, o’zga tilni o’rganish jarayoni madaniyatlararo muloqatni ta’minlab berishga xizmat qiladi. Shuning uchun, koreys tilini chet tili sifatida o’rgatish jarayonida uning madaniyatini o’rgatmaslikning iloji yo’q. Chunki, til va madaniyatning o’zaro aloqasini, “milliy xarakter”ni hisobga olgan holda o’rganish kerak .

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda davlat rahbarimiz biz yoshlarni zamonaviy ta’lim olishimiz, XXI asr talablariga to’laqonli javob beradigan kadrlarni yetishtirib chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. I.A. Karimov barkamol yoshlarni tarbiyalash va oliy ma’lumotli bo’lishi to’g’risida bir qancha qaror farmonlar qabul qildi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o’qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg’un kamol topgan, o’qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo’naltirilgan tizim yaratildi.¹

“Gohida bir tilda so’zlashayotgan insonlar ham bir-birini tushuna olmaydi, bunga sabab ularning madaniyatlari turlichaligidadir,” – deb aytgan Sherba. Bu

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat”, 2008, - 137b.

ikki madaniyat namoyondalari suhbat qurganda madaniyatlarning to'qnashuvi ro'y beradi deganidir. Bu suhbatdoshlarning salomlashishlaridanoq boshlanadi. Til o'rganish jarayonida esa, madaniyatlar to'qnashuvi katta muammo sifatida ko'tariladi. Bunga sabab til egasining "o'zimmiki" va "begonaniki" degan diskriminatsiya hosil bo'lishida. Til o'rganish jarayonida biz lingvomadaniyat, realiyalar, leksikalarning ekvivalentsizlik holatlarini chetlab o'ta olmas ekanmiz, tilning bu jihatlarini ham chuqurroq o'rganishga majbur bo'lamiz.

Bu holatga biz madaniyati boy koreys xalqining tilini o'rganish jarayonida ham duch kelamiz. Chunki, koreys xalqi o'ziga xos madaniyat: an'ana, urf-odat va turmush tarziga egadir. Bular albatta, koreys tilida o'z aksini topgan.

Koreys tilidagi ot so'z turkumi leksikasiga shu tilning xazinasini sifatida qaralishining sababi unda boshqa tillarga tarjima qilish mumkin bo'lmagan so'zlarning ko'pligidadir. Mazkur bitiruv malakaviy ishda biz otlarning to'liq leksik – semantik klassifikatsiyasini amalga oshirib, koreys tilining o'ziga xos milliy madaniyatiga mos so'zlarini tahlilga tortamiz. Bu bitiruv malakaviy ish koreys tili va madaniyatini uyg'unligiga dalildir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Koreys tilidagi ot so'z turkumi serqirra hodisa hisoblanadi. Bu masala xususida koreys va jahon tilshunoslari ko'plab izlanishlar olib borishgan. Mashhur koreysshunoslardan ot so'z turkumining turli xil jihatlarini o'rganib chiqishgan. Koreys tilidagi ot so'z turkumining morfologik jihatlarini Y.N.Mazurning 2001–yilda qayta nashr etilgan «Грамматика корейского языка (Морфология. Словообразование)» ("Koreys tili grammatikasi (Morfologiya. So'z yasalishi)"), sintaktik jihatlarini A.A.Xolodovichning 2006–yilda qayta nashr etilgan «Очерк грамматики корейского языка» ("Koreys tili grammatikasi tavsifi")lardan, umumiy xossalari esa, Li Ik Sopning 2006-yil Seul universiteti nashriyotida qayta nashr etilgan "한국어 문법" ("Koreys tili grammatikasi")sida chuqur o'rganilgan.

Koreys tilidagi ot so'z turkumining madaniyatlararo muloqotdagi alohida o'rnini hanuzgacha o'z yechimini kutayotgan muammoli masala hisoblanadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning maqsadi koreys tilidagi ot soʻz turkumining madaniyatlararo muloqatda tutgan oʻrnini tadqiq etish.

Qoʻyilgan maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Koreys tilidagi ot soʻz turkumining oʻziga xosliklari yaʼni uning morfologik, sintaksis xossalari haqida umumiy maʼlumotga ega boʻlish;
2. Koreys tilidagi ot soʻz turkumining mustaqil ot turini leksik-semantik jihatdan tahlil qilib, uni klassifikatsiya qilish;
3. Madaniyatlararo muloqotni koreys ovqatlari misolida oʻrganib chiqish;
4. Koreys tilidagi kiyimlarni ifodalovchi leksik birliklarni semantik jihatdan oʻrganish;
5. Koreys millatining oddiy turmush tarzi, urf-odat va bayramlarga oid soʻzlarining oʻziga xosliklarini koʻrib chiqish;

Tadqiqot obyekti va manbalari. Tadqiqot obyekti koreys tilidagi ot soʻz turkumidir. Ushbu bitiruv malakaviy ishni yoritishda asosiy manba sifatida koreys tilidagi Pek Bong Janing 2002 – yilda Seul universiteti nashriyotida chop etilgan “외국어로서의 한국어 문법 사전” (“Chet tili va rus tili uchun koreys tili grammatik lugʻati”), Li Ik Sopning 2006-yil Seul universiteti nashriyotida qayta nashr etilgan “한국어 문법” (“Koreys tili grammatikasi”), Noma Kitening 2002 – yilda Texaksada nashr etilgan “한국어 어휘와 문법의 상관구조” (“Koreys leksikasi va grammatikasining”) nomli kitoblar foydalanildi.

Tadqiqotning yangiligi:

- Koreys tilidagi ot soʻz turkumidagi mustaqil otlarning lugʻaviy-maʼnoviy toʻdalari va guruhlari oʻrganildi.
- Koreys tilidagi ot soʻz turkumi orqali koreys xalqi madaniyatning aks ettilishi tadqiq qilindi.
- Koreys kiyimlarini ifodalovchi, ovqatlarini ifodalovchi va maishiy hayotiga oid soʻzlarni tahlili orqali koreys milliy – madaniy oʻziga xosligi ochib berildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishning natijalari Oʻzbekistonda koreys tilini oʻrganayotgan talabalar va izlanuvchilar uchun koreys

madaniyati va tilinichuqurroq tadqiq etishlarida o'quv va tadqiqot manbai bo'la oladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: mazkur malakaviy ish kirish, asosiy qism, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida ishning dolzarbligi ko'rsatilib, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqotning yangiligi va amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Asosiy qism 2 bobdan iborat bo'lib, 1-bobda ikki reja asosida koreys tilidagi ot so'z turkumi va uning semantik tahlili o'rganib chiqildi. 2- bobda uch reja asosida koreys tilidagi mustaqil otlar milliy-madaniy semantikasini koreys millatining ovqatlari, kiyimlari va hayotiga oid so'zlar misolida tahlil qilindi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ishni amalga oshirishda qo'llanilgan o'zbek, koreys, ingliz va rus tillaridagi ilmiy ishlar, badiiy asar va internet manbalari keltirildi.

1-bob. Koreys tilida ot soʻz turkumining tutgan oʻrni

1.1. Koreys tilidagi ot soʻz turkumining oʻziga xosliklari

Koreys tilida ot soʻz turkumi (명사) – kim? nima? qayer? soʻroqlariga javob berib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayon va boshqa barcha narsalarni atab keluvchi leksik birlikdir. Ot soʻz turkumi oʻziga xos morfologik (형태론) paradigmalariga, soʻz yasash tizimiga xoslangan sintaktik pozitsiyalariga ega².

Ot – soʻz turkumlari (품사) orasidagi eng murakkablaridan biri boʻlib, bajaradigan funksiya va vazifalari juda ham koʻp. Koreys tilidagi otni leksik (어휘적인 의미), grammatik (문법적인 의미) va leksik-grammatik (어휘적-문법적 분류) jihatdan oʻrganish va tasniflashimiz mumkin³. Koreys tilidagi ot soʻz turkumi gap tarkibida eng koʻp funksiya bajaradi. Buning sababi, unga barcha kelishik qoʻshimchalari (조사) qoʻshilib, gapda hamma gap boʻlaklari sifatida qoʻllanilishi mumkinligidadir. Shuningdek, biz gapning strukturasi ayni egaga bogʻliq ekanligiga ahamiyat beradigan boʻlsak, ega faqat ot soʻz turkumidagi soʻz boʻlishi kerakligini ham bir sabab sifatida koʻrishimiz mumkin.

Leksik va grammatik maʼnolar bir-biridan farqlansa-da, uzviy aloqadordir. Ularning biri ikkinchisiz uchramaydi. Leksik jihatdan ularning maʼnosi bir-biridan farq qilishi mumkin, lekin grammatik jihatdan, hamma soʻzga bir xil qoʻshimcha qoʻshilsa, ularning barchasi bir xil maʼnoda qoladi, bir xil maʼnoni va bir xil vazifani bajarib keladi.

Koreys tilidagi otlarda rod tushunchasi va egalik qoʻshimchalarini qoʻshish degan tushuncha yoʻq. Koreys tilidagi otlarni birlik shaklda ishlatilsa-da, u koʻp hollarda koʻplik maʼnosini ham beraveradi. Bu jihati ham aynan leksik va grammatik jihatlarning kesishgan nuqtasi hisoblanadi⁴.

Ot – soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshimchalari bilan qoʻshilib kelib, gapda asosan, ega (주어) va toʻldiruvchi (목적어, 객어) rolini oʻynaydigan, predmetlikning grammatik maʼno umumiylikni birlashtirib keluvchi soʻzlar sinfi.

²용법편. 외국인들 위한 한국어 문법. -서울, 2003, -124 쪽.

³Oʻsha joyda, -89 b.

⁴이익섭. 한국어 문법. 서울대학교출판부. -서울, 2006, -33 쪽.

Masalan:

토끼가 달아난 자취는 더욱 재미있다. 바리 셋밖에 없는 짐승이 다닌 것 같이 보인다⁵.

Yugurib o'tib ketgan quyon izi undan ham qiziq. Ularga qarasang, huddi uch oyoqli hayvon yugurib o'tib ketganga o'xshaydi.

U so'z kombinatsiyalar (단어결합론적) orqali aniqlovchi (관형적) yasovchi, shaklini o'zgartishi bilan fe'l (동사) va sifatga (형용사) aylangan holda boshqa otni aniqlab kela oladi. Misol uchun:

더 토론하실 분이 없으십니까?

Majlisda ishtirok etishni istagan odam yo'qmi?

Koreys tilidagi ot quyidagi belgilar bilan ajralib turadi⁶:

1. Predmetlikning umumgrammatik ma'nosi bilan;
2. Gapda barcha gap bo'laklari bo'lib kela olishi bilan.

Masalan:

몇일전에 인해 붙인 잡지 원고의 교정이 오늘부터 나온다는 말을 들은 경수는 아침을 재촉해서 먹고 그 질로 바로 인쇄소로 달려갔다⁷.

Nechidir kun avval, o'sha kuni korrekatura jurnali chiqishini eshitgan Kyong Su nonushtasini tezda qilib, bosmaxonaga chopib ketdi.

3. -이다 va -아니다 qo'shimchalari bilan qo'shilish xususiyatiga egaligi bilan.

Masalan:

중국문하기 한문으로 쓰이고 영문학은 영문으로 일본문학은 일본문으로 쓰이는 것은 원형리정이다⁸.

Xitoy adabiyotining xitoy tilida, ingliz adabiyotining ingliz tilida, yapon adabiyotining yapon tilida yozilishi bu alifbo haqiqatidir.

4. Asos morfemasining avtonomligi, ya'ni boshqa so'zlarga qo'shilmagan holda mustaqil so'z sifatida qo'llash mumkinligi bilan;

5. -들 ko'plik qo'shimchasi orqali grammatik jihatdan ko'plik shaklini ifodalab kelishi bilan.

⁵천명관. 고래. -서울, 2014, -44 쪽.

⁶이익섭. 한국어 문법. 서울대학교출판부. -서울, 2006, -90 쪽.

⁷O'sha joyda, -76 b.

⁸김태준. 한소설의 역사. -서울, 1975, -207 쪽.

Masalan:

바다에는 날마다 배들이 지나간다. 깃발이 펄럭거리는 배를 따라 갈매기들은 어디론지 나라간다⁹.

Daryo bo'ylab har kuni kemalar suzadi. Bayroqlari hilpirayotgan kemalar ortidan chag'alaklar qayoqqadir uchishar.

6. Posleloglarning qo'shilishi bilan;

7. Faqat otlarga xos so'z yasovchi tip xususiyatiga egaligi bilan;

8. Aniqlanib kelishi bilan.

Masalan:

눈이 그의 입술 끝에 녹아지고 또 노가졌다. 그는 찬 냉수를 마시는 듯하여 가슴이 시원하군하였다¹⁰.

Qor birma-bir uning lablari atrofiga tushar edi. Bundan qalbda huddi muzdek suv ichgandek soflik sezilar edi.

Otning tashqi sinfida esa quyidagi xususiyatlarga ega¹¹:

1. Atributiv sifatida qo'llaniluvchi otlar.

Masalan:

인민해방군은 적군이 근대식 요새를 파괴한 다음 동도 내에 진격하여쓰며 동도는 신흥일에 해방되었다¹².

Xalq ozodlik armiyasi dushmanning zamonaviy qurollariga bardosh bergandan keyin orol ichkarisiga kirib ketdi; o'n oltita orol qutqarilib qolindi.

2. Adverbial sifatida qo'llaniluvchi otlar;

3. -하다 bilan qo'shib, sifat va fe'l yasovchi ot.

Masalan:

그러나 이번에는 아무도 선뜻 대답하는 이가 없었습니다.

Lekin bu safar darrov javob beradigan bo'lmadi.

Koreys tilidagi ot grammatik jihatdan prefiks va affikslarni qo'shib kela oladi¹³.

⁹ 이분며. 젊음. -서울, 1980, -177 쪽.

¹⁰ 간견애. 인간의 문제. -서울, 1970, -24 쪽.

¹¹ 이익섭. 한국어 문법. 서울대학교출판부. -서울, 2006, -91 쪽.

¹² 오세영. 원행. -서울, 2013, -56 쪽.

¹³ 이익섭. 한국어 문법. 서울대학교출판부. -서울, 2006, -90 쪽.

Masalan:

어떤 날 해와 바람이 누가 힘이 센가 하고 서로 다를 때마침 한사람이 두루마기를 입고 길을 가고 있었다¹⁴.

Bir kuni oftob va shamol o'zaro kim kuchli ekanligi haqida talashib turgan huddi o'sha vaqtda, turumagi¹⁵ kiygan odam yurib ketayotgan edi.

Boshqa tillarda juda kamdan – kam uchraydigan sanoq so'zlarni 개, 겹, 길, 냥, 뉘, 대, 돈, 마리, 모금, 문, 바람, 번, 벌 va boshqalarni ham o'z tarkibiga oladi.

Koreys tili grammatikasi kitoblarida ot so'z turkumining leksik, grammatik va leksik-grammatik xususiyatlarini turlicha berishgan va uning klassifikatsiyasida ham ancha farqlar mavjud. Ulardan bir nechtasini misol tariqasida ko'rib chiqib, optimal variant ishlab chiqishga harakat qilib ko'ramiz.

Sin Ge Jong (신개정) o'zining “Koreys tili grammatikasi” (“한국어 문법”) deb atalmish asarida koreys tilidagi ot so'z turkumini quyidagicha ta'riflaydi: “사람이나 사물의 명칭을 가라키는 단어를 명사라 한다. 명사는 쓰이는 범위에 따라 고유명사와 보통명사로, 자립성 유무에 따라 자립명사와 의존명사로 나눌 수 있다. 이를 정리하면 아래와 같다”¹⁶. Ya'ni “Inson va predmetlar nomiga yo'naltiruvchi so'zlar otlardir. Ular qo'llanilishiga ko'ra atoqli otar va turdosh otlarga, mustaqilligiga ko'ra mustaqil va tobe otlarga bo'linadi.”

1 – jadval

	명사의 종류	성격 및 정의	보 기
쓰이는 범위에 따라	고유명사	특정한 사람이나 사물에 붙여지는 이름	동대문, 김영수, 대한민국, 한라산
	보통명사	사물에 쓰이는 것	지하철, 학교, 집
자립성 유무에 따라	자립명사	다른 말의 도움이 없이 쓰이는 명사	하늘, 사람, 문, 제주도, 서류, 가방
	의존명사	다른 말에 기대야 기능을 발휘할 수 있는 명사	-분, -것, -만

Ko'rib turganimizdek, muallif ot so'z turkumini ikki guruhga, ya'ni uning qo'llanishi va mustaqilligi mavjudligiga ko'ra bo'ladi. U qo'llanilishiga ko'ra

¹⁴김태준. 한소설의 역사. -서울, 1975, -107 쪽.

¹⁵두루마기 – koreys milliy ustki kiyimi.

¹⁶신개정. 외국인들을 위한 한국어문법. 발행연세대학교출판부. -서울, 1997, -16 쪽.

guruh tarkibiga atoqli va turdosh otlarni kiritadi. Atoqli otlarga inson yoki predmetlarga berilgan nom deb ta'rif beradi. Turdosh otlarni esa predmetlarga qo'llaniladi deydi.

Mustaqilligi mavjudligiga ko'ra guruhiga mustaqil ot va tobe otlarni kiritadi. Mustaqil ot deb, boshqa so'zlar yordamisiz ishlatiladigan so'zlarga aytiladi. Tobe otlarga esa, boshqa so'zlar yordamida qo'llaniladigan otlarni kiritadi.

1 – jadval (tarjimasi)

	Ot turlari	Ta'rif	Misollar
Qo'llanilishiga ko'ra	Atoqli ot	Inson yoki predmetlarga berilgan nom	Tongdemun, Kimyongsu, Koreya, Xallasan
	Turdosh ot	Predmetlar nomi	Metro, maktab, uy
Mustaqilligi mavjudligiga ko'ra	Mustaqil ot	Boshqa so'zlar yordamisiz qo'llaniladi	Osmon, odam, eshik, Chejudo, hujjat, sumka,
	Tobe ot	Boshqa so'zlar yordamida qo'llaniladi	Odam, narsa, faqat

Sin Ge Jong atoqli otlar tarkibiga joy, inson, predmetlar nomlarini kiritib. Turdosh otlarga esa qolgan barcha narsalar, predmetlar, hodisalar nomini kiritadi. Lekin bu klassifikasiya otning to'liq semantik xususiyatlarini ochib bera olmaydi.

Muallif otning boshqa turlaridan ko'ra tobe otlar ustida ko'proq ishlagan. Chunki koreys tilidagi otning aynan shu turi boshqa tillardagi ot turlaridan farq qiladi. Koreys tilini o'rganayotgan inson uchun bu tobe otlarning to'liq ma'nosini tushunib olish, gapda uni qo'llay olish, qanday so'zlar bilan ishlatish qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki ularning boshqa tillarda mustaqil ekvivalenti mavjud bo'lishi, yoki ular umuman bir qo'shimcha sifatida qo'llanilishi mumkin. Sin Ge Jongning mana shu masalaga alohida e'tibor bergani juda o'rinli.

Madaniyatlararo muloqot juda ko'p sohalarni o'z ichiga qamrab olar ekan, unda qiyoslash, tarjima, tushunish, yetqazib berish alohida o'rin egallaydi. Mana shu tushunchalarning kesishgan nuqtasida tildagi nafaqat alohida bir so'zning roli, tarjimasi, ma'nosi, balki u qanday so'zlar bilan qo'llanishi mumkinligi, boshqa til egasi buni qanday qabul qilishi ham ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz hozir

e'tiborimizni asosan otning semantik tahliliga qaratishimiz kerakligi uchun Sin Ge Jongning tobe otlarni grammatik jihatdan tahlilida to'xtalmaymiz.

Koreys tilshunoslaridan biri Li Ju Xeng (이주행) o'zining “Koreys tili grammatikasi haqida” (“한국어 문법의 이해”) kitobida koreys tili morfologiyasiga chuqur e'tibor qaratadi. U: “정의 명사란 사람이란 사물의 이름을 나타내는 품사이다. 명사는 분류 기준-사용 범위, 자립성 유무, 감정성 유무, 동태성 유무, 구상성 유무-에 따라 여러 가지로 나뉜다”¹⁷. Ya'ni u otni inson va predmetlar nomini atab keluvchi so'z turkumi deydi. Boshqa tillarda ot artıkl va predloglar bilan qo'llanilsa – da, koreys tilidagi ot faqat qo'shimchalar bilan turlanadi deydi. Shuningdek, faqat ot so'z turkumi boshqa so'z turkumlar bilan bevosita aloqador bo'lishi mumkin deydi.

Li Ju Xeng otni 5 xil turga bo'ladi. Birinchi turi qo'llanilishiga ko'ra bo'lib, u ham o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi. Yani atoqli otlar va turdosh otlargadir. Dunyodagi har bir narsani atash uchun qo'yilgan nom atoqli ot deb ta'rif beradi Li. U asosan inson, joy va predmetlarga nisbatan qo'llaniladi deydi. Ularni biz yana “yolg'iz ismlar” deb ham atashimiz mumkin deb taklif kiritadi Li Ju Xeng. Turdosh otlarni esa “umumiy nomlar” deb ta'riflaydi. Biz turdosh otni qo'llaganimizda aynan kim yoki nima haqida gapirilayotganini ohirigacha tushuna olmasligimiz mumkin deydi.

2 – jadval

명사의 종류		
명사	사용 범위에 따라	보통 명사
		고유 명사
	자립성 유무에 따라	자립 명사
		의존 명사
	감정성 유무에 따라	유정 명사
		무정 명사
	동태성 유무에 따라	동태성 명사
		비동태성 명사
	구상성 유무에 따라	구상 명사

¹⁷이주행. 한국어 문법의 이해. -서울, 2000, 102 쪽.

		추상 명사
--	--	-------

2 – jadval (tarjimasi)

Ot soʻz turkumining turlari		
Ot soʻz turkumi	Qoʻllanilishiga koʻra	Turdosh ot
		Atoqli ot
	Mustaqilligiga koʻra	Mustaqil ot
		Tobe ot
	Xis – tuygʻularga koʻra	Jonli ot
		Jonsiz ot
	Harakatchanligiga koʻra	Doimiy harakatni anglatib keladigan ot
		Holatni anglatib keladigan ot
	Mayjudligiga koʻra	Mavhum ot
		Aniq ot

Noma Xitekining (노마 히데키) “Koreys tili leksikasi va grammatikasining oʻzaro aloqasi” (“한국어 어휘와 문법의 상관구조”) kitobida koreys tili soʻz turkumlarini leksik jihatdan klassifikatsiyatlari berilgan. Unda koreys tili ot soʻz turkumining semantik klassifikatsiyasi alohida oʻrin egallaydi. Noma Xiteki ot soʻz turkumiga quyidagicha taʼrif beradi: “Ot – oʻzgarmaydigan soʻz turkumlari orasidagi eng qadri baland, koʻp ishlatiladigan, ismlarni, voqea –hodisalarni atab keluvchi mustaqil soʻz turkumidir. U gapda boshqa soʻz turkumlarining yordamisiz qoʻllanila oladi”.

Noma Xiteki koreys tilidagi ot soʻz turkumini umumiy guruhlar mustaqil va yordamchi otlarga boʻladi. Mustaqil otlarni ham yordamchi otlarni ham soʻz maʼnosiga qarab klassifikatsiya qilgan.

Mustaqil otlarning jonli otlar guruhiga u hayvon, insonlar va tashkilotlar nomlarini kiritadi. Shuningdek, bularni sanaladigan ot turlari guruhiga ham kiritadi.

Mustaqil otlarning jonsiz otlar guruhini ikkiga bo'ladi, yani sanaladigan va sanalmaydigan otlar. Sanaladigan ot – ko'plik qo'shimchasi –들 qo'shiladigan otlar hisoblanadi.

3 – jadval

완전명사 (umumiy otlar)	동물명사 (hayvon nomlari) 개, 새 (it, qush) 인간명사 (shaxs tavsifi otlari) 사람, 학자 (odam, olim) 단체명사 (tashkilot nomlari) 회사, 당 (firma, partiya) 장소명사 (joy nomlari) 곳, 장소, 도시 (joy, o'rin, shahar) 구체명사 (aniq nomlar) 짐, 나무 (buyumlar, daraxt) 신체명사 (tana – a'zolari nomlari) 손, 눈 (qo'l, ko'z) 사항명사 (holat nomlari) 생각 (fikir, fakt, til)	활동체명사 (jonli otlar)	가	(sanaladigan otlar)
	위치명사 (joylashuv otlari) 위, 앞, 뒤 (ust, old, orqa) 시간명사 (vaqt otlari) 오늘, 봄 (bugun, bahor) 수량명사 (miqdor otlari) 천원 (ming von) 물질명사 (moddalar nomi) 물, 가스 (suv, gaz) 추상명사 (mavhum otlar) 도덕, 각도 (axloq, nuqtai nazar) 성질명사 (harakat nomi otlari) 필요, 안전 (kerak, havfsizlik) 활동명사 (harakat nomlari) 조심 (ehtiyotkorlik) 영위명사 (ish olib borish nomlari) 구경 (ko'zdan kechirish)	불활동체명사 (jonsiz otlar)	불	(sanalmaydigan otlar)
불완전명사	형용명사 (tasvirlash nomlari) 객관적, 미적 (obyektiv, estetik)		사	
	제일군 (birinchi guruh) 분, 나름, 따위 (odam, bo'lishi mumkin, - dek)			
	제이군 (ikkinchi guruh) 것, 나위, 리 (narsa, arzimaydi ham, darajada)			
	명수사 (sanoq so'zlar) 개, 잔, 번, 월 (ta, dona, marta, oy)			

Koreys tili grammatikasi haqidagi ayrim kitoblarda jonli va jonsiz otlarni -에게, -에게서, -께, -께서 (-ga, -dan) qo'shimchalarining qo'shilishi yoki qo'shilmasligi bilan ajratib olinadi. Yani shu qo'shimchalarni oladigan otlar jonli otlar hisoblanadi. Bunga asosan insonlar kiritiladi. Lekin Noma Xitekining ushbu grammatika kitobida hayvon va tashkilotlarni ham ushbu jonli otlar guruhiga kiritadi. Jonsiz otlarga esa -에, -에서 (-ga, -da, -dan) qo'shimchalari qo'shiladigan so'zlar kiradi.

Noma Xiteki sanaladigan jonsiz otlar guruhiga joy, aniq, tana-a'zolari, holat nomlarini kiritgan. Sanalmaydigan jonsiz otlar guruhiga esa joylashuv, vaqt, miqdor, moddalar, mavhum, harakat nomi, harakat, ish olib borish nomlari kiritilgan. Noma Xitekining tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya turdosh otlarga tegishli bo'lib, uningcha atoqli otlar umuman alohida ot turiga kiritiladi.

Jonsiz otlarni uch guruhga bo'ladi: -이다 qo'shimchasi qo'shilib ot kesim vazifasida kela oladigan yordamchi otlar, ko'rsatish olmoshlari bilan qo'llaniladigan otlar va sanoq so'zlardir.

1.2. Koreys tilidagi ot so'z turkumining semantik jihatdan klassifikatsiyasi

Biz yuqorida koreys tilidagi ot so'z turkumining umumiy xossalarini va uning o'ziga xosliklarini o'rganib chiqdik. Diqqatimizni, asosan, koreys tilidagi ot so'z turkumini koreys tilshunoslarining leksik jihatdan turlicha tasniflaganlari tortdi. Bunga asosiy sabab ot so'z turkumining leksik tahlili uning grammatik jihatdan bajaradigan vazifalari bilan jambarchas bog'liqligidadir. Misol tariqasida ot so'z turkumining mustaqil va yordamchilarga bo'linishida ko'rishimiz mumkin.

Masalan:

모처럼 한가하고 해서 특별 요리를 준비해 봤다.

Uzoq kutilgan dam olish kuni deb o'zgacha ovqat tayyorlab ko'rdim.

Chunki mustaqil va yordamchi turlar uning ma'nosini emas, balki qanday vazifalarni bajara olishi, gapda qanday o'rin tututishini ko'rsatib beradi. Mustaqil otlar o'zi hech qanday boshqa so'z turkumlarining yordamisiz qo'llaniladigan so'zlardir. Ularga kelishik qo'shimchalari qo'shilishi bilan sintaksis vazifalari ham o'zgaradi. U atribut so'zlar bilan aniqlanib keladi.

Masalan:

날씨도 차고 하니 조심해서 다녀오너라.

Ob – havo ham juda sovuq, ehtiyot bo'lib borib kel.

Yordamchi otlarning ham mustaqil otlar kabi funksiyalari va o'ziga xosliklari mavjud. Yordamchi otlarni hech qachon yakka holda qo'llab bo'lmaydi. U faqat mustaqil otga qo'shilib qo'shimcha ma'no berishi mumkin.

Masalan:

아무 것도 먹을 것이 없기 때문에 시장을 봐야겠다.

Yeyishga hech nima yo'qligi sababli, bozorga borishim kerak.

Yordamchi otlarning ham turlari ko'p bo'lib, ularning barchasi turli xil ma'no beradi va qanday yordamchi ot qo'shilganligiga qarab, so'zning gapda bajaradigan sintaksis vazifasi ham o'zgaradi. Biz ishimizning mana shu qismda koreys tilshunoslarining ot so'z turkumining semantik tahlillari bo'yicha turli fikrlarini

umumlashtirgan holda batafsilroq ochib berishga harakat qilamiz. Bunda qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalaniladi.

Koreys tilidagi ot so'z turkumini grammatik jihatdan mustaqil otlar va yordamchi otlar guruhiga bo'lib olib, ularning tarkibiga leksik jihatdan tahlillarini kiritmoqchimiz. Mustaqil otlar tarkibiga atoqli va turdosh, jonli va jonsiz, sanaladigan va sanalmaydigan, aniq va mavhum otlarni kiritishimiz mumkin.

Yordamchi otlar tarkibiga gapda universal, ot kesim, fe'l kesim, ravish funksiyasida keluvchi yordamchi otlar va miqdorni bildiruvchi yordamchi otlar kiradi. Yordamchi otlarni biz faqat ularning bajaradigan funksiyasiga qarab ajratishimiz mumkin chunki, ularning mustaqil ma'nolari mavjud emas. Ular faqat boshqa qo'shimcha otlarga ma'no berishi mumkin. Bu klassifikatsiya quyidagichadir:

4 – jadval

명 사 종 류	
자립명사 (mustaqil otlar)	보통 명사 (atoqli otlar)
	고유 명사 (turdosh otlar)
	유정 명사 (jonli otlar)
	무정 명사 (jonsiz otlar)
	가산 명사 (sanaladigan otlar)
	불가산 명사 (sanalamaydigan otlar)
	구상 명사 (aniq otlar)
	추상 명사 (mavhum otlar)
의존명사 (yordamchi otlar)	보편성 의존명사 (universal)
	주어성 의존명사 (ot kesim funksiyasida keluvch y.o.)
	서술어성 의존명사 (fe'l kesim funksiyasida keluvchi y.o.)
	부사어성 의존명사 (ravish funksiyasida keluvchi y.o.)
	단위성 의존명사 (miqdorni bildiruvchi yordamchi otlar)

Koreys tilidagi mustaqil otlar guruhiga kiruvchi atoqli otlar deb, inson ismi, joy nomlari, dunyoda yagona uchraydigan narsalar nomiga aytiladi.

Masalan:

덕주니 무슨 중요한 공작을 맡고 있는 것을 점순이는 짐작하고 있었습니다.¹⁸

Tok Chunning qandaydir muhim ishni bajarayotganini Chom Sun tushunardi.

해가 아슬 아슬 서산에 기울어질 무렵 이 포위망은 완전히 조여들었다¹⁹.

Oftob tog'lar ortiga botadigan vaqtda, g'arb tomon butunlay sokinlikka cho'mdi.

국민당 복건성 정부는 팔월에 복주가 해방된 이래 대만에 피난하였었다²⁰.

Avgustda Fuchjou oroli ozod qilinganidan so'ng, Futzuyan viloyatining gomindan hokimiyati Tayvanga qochar edi.

Atoqli otlar ko'plikda qo'llanilmaydi, ularning barchasi o'zicha noyob hisoblanadi. Atoqli otlar kelganda, gapirilgan narsa haqidagina tasavvur paydo bo'ladi. Koreys tilidagi atoqli otlar boshqa tillarga tarjima qilinmaydi, ular ekvivalentsiz otlar hisoblanadilar.

Masalan:

학교가 가까워도 영화는 항상 지각을 한다²¹.

Maktab yaqin bo'lsa-da, Yonxe doim kech qoladi.

영숙이더러 물어 봐.

Yongsukdan so'rab ko'ring.

Ular gapda barcha gap bo'laklari bo'lib kela olish xususiyatiga egadirlar. Atoqli otlarni son bilan qo'llab bo'lmaydi, chunki ular sanalamaydigan otga kiradilar.

Masalan:

몇일전에 인해 불인 잡지 원고의 교정이 오늘부터 나온다는 말을 들은 경수는 아침을 재촉해서 목고 그 질로 바로 인쇄소로 달려갔다²².

¹⁸이분며. 젊음. -서울, 1980, -204 쪽.

¹⁹천명관. 고래. -서울, 2014, -44 쪽.

²⁰이원호. 보스. -서울, 2014, -67 쪽.

²¹김훈. 칼의노래. -서울, 2014, -54 쪽.

²²이기연. 10 년 후에. -서울, 1999, -76 쪽.

Nechidir kun avval, o'sha kuni korrekatura jurnali chiqishini eshitgan Kyong Su nonushtasini tezda qilib, tipografiyaga chopib ketdi.

Koreys tilidagi turdosh yoki umumiy otlar – bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchilardir. Turdosh otlar ot turkumiga kirgan so'zlarning asosiy qismini tashkil etadi. Turdosh otlarda predmetlik va belgilik xususiyatlari yaxlitlashgan holda mavjud bo'ladi. Chunki har qanday narsa belgi-xususiyatlar majmuasidir. Koreys tilidagi turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra: a) muayyan (aniq) va b) mavhum otlarga bo'linadi.

Sezgi a'zolari bilan sezish mumkin bo'lgan predmetlarni atovchi otlar muayyan otlar deyiladi. Muayyan otlarni bevosita sanash mumkin. Shuning uchun bunday otlar sanoq sonlar bilan munosabatga kirishadi. Shuningdek, shaxsiy baho shakllari, ko'plik qo'shimchasini olishi mumkin.

Masalan:

우리는 어서 꽃이 피기를 기다립니다.

Bizlar tezroq gullar ochilishini kutyapmiz.

Koreys tilidagi muayyan otlar quyidagi lug'aviy-ma'noviy to'dalarga ega. Bu har bir lug'aviy-ma'noviy to'da o'z ichida bir necha lug'aviy-ma'noviy guruhlariga bo'linib ketadi. Masalan, shaxs tavsifi nomlari quyidagi lug'aviy-ma'noviy guruhlariga ajraladi. Boshqa lug'aviy-ma'noviy to'dalar ham shunday lug'aviy-ma'noviy guruhlariga bo'linadi. Muayyan otlar lug'aviy-ma'noviy guruhlarini nisbatan barqaror va o'ta keng, deyarli cheklanmagan va o'zgaruvchan qurshovlardan iborat.

Lug'aviy-ma'noviy guruhlar markazidagi leksemalar o'zaro giponimik, partonimik, graduonimik, funktsionimik, ierarxionimik munosabatlarida yashaydi. Masalan, daraxt leksemasi quyidagi jins-tur munosabatlarida yashaydi: qayin, tol, o'rik, terak, majnuntol, archa. Funktsional asosda tuzilgan lug'aviy-ma'noviy guruhlarlar ancha oz: qalam, ruchka. Shaxs tavsifi otlari esa keng ma'noni anglatib, bir guruh so'zlar qatoriga egaligi bilan ajralib turadi.

1. 동물명사: 개, 닭, 돼지, 고양이, 호랑이, 말, 사슴, 나비, 새끼, 조기, 플랑크톤, 개구리, 멍멍이, 미꾸라지, 뼈꾸기.

Hayvon va qushlar nomlari: it, tovuq, cho'chqa, mushuk, yo'lbars, ot, kiyik, kapalak, bug'i, baliq, plankton, qurbaqa, kuchuk, pechak, kakku. Koreys tilidagi hayvon va qushlar nomlariga biz nafaqat hayvon, qushlarni, balki, hashorat olami, baliqlar olami, bakteriya, parazit, mikroblargacha kiritishimiz mumkin. Koreys tilidagi hayvon nomlari jonli ot turiga kirsa-da, ularga jonsiz otlarga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shiladi.

Masalan:

제비는 봄에 왔다가 가을에 가고 기러기는 가을에 왔다가 봄에 간다²³.

Qaldirg'ochlar bahorda uchib kelib, kuzda uchib ketsalar, g'ozlar kuzda uchib kelib, bahorda uchib ketadilar.

2. 인간명사: 사람, 학자, 어머니, 아버지, 어린이, 어른, 누나

Shaxs tavsifi nomlari: odam, olim, ona, kattalar, opa.

사람은 먹은 것에 대하여 지나치게 집착해서는 안 된다.

Odam yeyishga mukkasidan ketishi mumkin emas.

Bu guruhga kiruvchi so'zlarning barchasi jonli otlarga kiradi. Koreys tilida bu guruhning hurmat shakllari ham mavjud. Bu guruh juda keng lug'aviy-ma'noviy guruhlarga ega:

연령순적: 아이, 아기, 어른 어린이, 소년, 소녀, 성년

Shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruhlarga: qari, o'smir, o'spirin, yoshi katta odam.

Masalan:

가족들과 함께 신사하고 싶어하기 시작한 **아기**들은 **어른**들 식탁 위에 놓인 음식에 더 관심을 보일 수가 있다²⁴.

Oila bilan birga ovqatlanishni xohlagan bolalar, kattalar stol ustiga qo'yishgan ovaqtlarga qarab yanada qiziqishi paydo bo'ldi.

그 **아가씨**더러 그 **사람**하고 일찌감치 헤어지라고 그랬어.

“U ayol u odam bilan juda ham erta ajralib ketdi” deb aytdi, shunday emas – mi?

그때 **남자** **몇 사람**이 맥주병을 들고 플로어로 접근했다.

²³천명관. 고래. -서울, 2014, -24 쪽.

²⁴이정명. 바람의화원. -서울, 2014, -9 쪽.

Bir nechta kishi qo'lida pivo ushlagan holda yaqinlashib kelishardi.

친족명사: 고모, 누나, 딸, 마누라, 막내, 삼촌, 아버지, 어머니, 형, 할머니, 동생, 오빠, 할아버지, 시어머니, 등.

Shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruhlarga: amma, opa, qiz, xotin, kenja, kenayi, ota, ona, aka, buvi, singil, aka, bobo, qaynona va boshqalar.

Masalan:

그날 저녁 저는 온 집안 식구들의 웃음 거리가 되었습니다.

Men kelgan uyning egalari o'sha kuni kulishib o'tirishgan edilar.

직업명사: 교환, 광대, 교수, 머슴, 무당, 선생님, 스님, 여공, 의사, 조수, 학자, 등.

Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi lug'aviy-ma'noviy guruhlarga: professor, aktyor, professor, batrak, o'qituvchi, ustoz, ishchi, shifokor, ishchi, olim va boshqalar.

Masalan:

그리고는 무뚝뚝한 표정으로 뒷전의 동료들 쪽을 두리번거렸다²⁵.

U o'z kasbdoshlarining sovuq qarashlariga dosh bera olmasdan, ularning orqasidan o'tib ketdi.

Koreys tilida shunday qo'shimchalar borki, ular ot, sifat, fe'l, son turkumidagi so'zlarga qo'shilib otlarni yasab keladi. Bu qo'shimchalar so'zga qo'shilgandan so'ng, har xil lug'aviy-ma'noviy guruhlarga tegishli so'zlarni hosil qiladilar. Ulardan kasb yasovchi, odam belgilarini, ruhiy holatini, ijtimoiy holatini, laqabini ko'rastib keluvchi ot so'z turkumidagi so'zlarni hosil qilish mumkin. Bu qo'shimchalarga: -꾼 qo'shimchasi o'zbek tilidagi -chi qo'shimchasiga to'g'ri keladi. U sifat, fe'l, ot, son so'z turkumlaridan kasb-hunar egasini yasash xususiyatiga ega: 농사꾼, 사기꾼, 사냥꾼, 씨름꾼, 일꾼, 장꾼, 장사꾼, 채주꾼, 주정꾼, 파수꾼, 품팔이꾼, 나무꾼, 술꾼, 지게꾼, 등. Dehqon, yolg'onchi, ovchi, kurashchi, ishchi, soya qiluvchi, savdogar, iqtidorli, karaxt odam, qorovul, qo'l ostida ishlovchi, daraxt kesuvchi, spirtli ichimliklarni ko'p ichuvchi va boshqalar. -꾸러기, -뱅이, -장수, -장이 qo'shimchalari yordamida har xil so'z turkumlari

²⁵이정명. 뿌리깊은나무. -서울, 2014, -26 쪽.

yordamida ot so'z turkumining bir lug'aviy-ma'noviy guruhlarini tashkil qiluvchi so'zlarni hosil qilish mumkin. Bu qo'shimchalar yordamida, asosan, insonning belgilarni ko'rsatuvchi otlarni yasashimiz mumkin: 말쑥꾸러기, 심술꾸러기, 욕심꾸러기, 익살꾸러기, 잠꾸러기, 장난꾸러기, 가난뱅이, 게으름뱅이, 안달뱅이, 장돌뱅이, 주정뱅이, 떡장수, 생선장수, 신기료장수, 옛장수, 갓쟁이, 개구쟁이, 관상쟁이, 거짓말쟁이, 겁쟁이, 게으름쟁이, 고자질쟁이, 고집쟁이, 그림쟁이, 깍쟁이, 난봉쟁이, 노래쟁이, 늦잠쟁이, 대장쟁이, 땀쟁이, 뚜쟁이, 멋쟁이, 미쟁이, 사진쟁이, 수다쟁이, 수선쟁이, 심술쟁이, 요술쟁이, 욕심쟁이, 월급쟁이, 익살쟁이, 잔소쟁이, 점쟁이, 중매쟁이, 트집쟁이, 등²⁶. Sergap, tantiq, vijdonli, hazilkash, uyquchi, kambag'al, dangasa, voxma, savdogar, mayparast, nonvoy, baliqchi, sehrGAR, chaqqon, o'yinqaroq, yoqimtoy, yolg'onchi, qo'rqq, ishyoqmas, chaqmachaqqar, o'jar, rassom, qizg'anchiq, axloqsiz, qo'shiqqi, uyquchi, jangari, mehnatkash, olifta, sohibjamol, sur'atkash, safsataboz, mexanik, tantiq, afsun, vijdonli, xizmatchi, qiziqchi, nolachi, folbin, sovchi, tirnoq tegidan kir qidiruvchi va boshqalar. Bunday ot yasovchi qo'shimchalarga yana -이, -가, -객, -공, -관, -민, -범, -부, -사, -사, -생, -아, -원, -인, -자, -장, -주, -한 qo'shimchalari orqali yasaladigan otlarni kiritishimiz mumkin: 늙은이, 못난이, 어린이, 역은이, 이쁜이, 젊은이, 지은이, 사상가, 탑승객, 인쇄공, 외교관, 피난민, 정치범, 가정, 부약아, 변호사, 청강생, 반역아, 간호사, 한국인, 노동자, 편집장, 세대주, 문외한, 등²⁷. Keksa, tentak, katta yoshdagilar, temir yo'lchi, yoqimtoy, yoshlar, muallif, dono, yo'lovchi, bosmachi, diplomat, qochoq, siyosiy jinoyatchi, tarafdor, farmatseft, advokat, sotqin, hamshira, koreys, ishchi, muharrir, oilaning bosh a'zosi, notanish odam va boshqalar.

3. 단체명사: 회사, 당, 병원, 학교, 군대, 대학교, 집, 나라, 대사관, 정보부, 호텔.

Tashkilot nomlari: firma, partiya, kasalxona, institut, uy, mamlakat, kutubxona, ma'lumot markazi, mehmonxona.

Masalan:

나는 대학교를 졸업하고 한국에 가 싶다.

²⁶노마 히데키. 한국어 어휘와 문법의 상관구조. -서울, 2002, -279 쪽.

²⁷O'sha joyda, -281 b.

Men institutni bitirib, Koreyaga ketgim kelyapti.

Bu ot lug'aviy-ma'noviy to'dalarning sof formasi ham, qo'shimchalar yordamida yasaladigan tashkilotlar nomi mavjud. Ular quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi: -계, -과, -국, -군, -권, -단, -대, -부, -사, -원, -처, -체, -측, -파. 편집국, 운동권, 음악대, 신문사, 대학원, 학생처, 자치체, 회사측, 반대파, 접수계. Muharrir, sport zali, musiqa uyi, nashriyot, magistratura, avtonom boshqarma, korxona, qabul punkti.

Masalan:

정부에서 하는 일이라고 다 옳겠어요?

Ma'lumot markazida qilinadigan ishlarning barchasi tushunarlimi?

그건 벌써 회사에서 결정했어요.

U allaqachon korxonasiga yetib bordi.

4. 장소명시곳: 장소, 도시

Joy nomlari: joy, o'rin, shahar.

Masalan:

그러면서 그저 연놀이에만 댕이 팔려 바닷가 언덕들만 쏘다니고 있었다²⁸.

Qalbim talpinar faqat sohil tomonlarga.

그러다가 우연히도 길에서 만나게 되었던거예요²⁹.

Tasodifan yo'l yoqasida uchrashib qoldik.

그런 분 위기에서 어떻게 공부를 할 수가 있단 말인가³⁰.

Bunday insonga ta'lim olish jarayonidagi qiyinchiliklar hech gap emas.

책방을 한 군데만 더들러 보기로 해요.

Yana bir bora kitob do'konidan qidirib ko'rishga qaror qildim.

5. 구체명사: 책, 바위, 돌, 다이아몬드, 석유, 배, 문, 비행기, 빵, 사과, 연필, 짐, 나무, 바늘, 단어, 구멍, 고치, 무기, 택시, 옷, 꽃, 약, 종이, 집, 구두, 입장권, 비행기, 녹음기, 학생복, 초청장, 학생증³¹.

Aniq otlar: kitob, qaychi, tosh, olmos, neft, qayiq, eshik, samolyot, non, olma, qalam, buyum, daraxt, igna, so'z, teshik, ipak pilla, qurol, taksi, kiyim, gul, dori,

²⁸권비영. 덕혜옹주. -서울, 2014, -13 쪽.

²⁹O'sha joyda, -38 b.

³⁰정영문. 어떤작위의 세계. -서울, 2014, -27 쪽.

³¹노마 히데키. 한국어 어휘와 문법의 상관구조. -서울, 2002, -287 쪽.

qog'oz, uy, oyoq-kiyim, kirish joyi, samolyot, magnitofon, o'quvchi formasi, taklifnoma, talabalik guvohnomasi.

Masalan:

첫 책에 소설들을 쓸때, 나는 우리 도시 주변과 가까운 공업 지구에 취재를 나가고는 했다³².

Birinchii romanimni yozgan damlarimda men ma'lumot yig'ish uchun shahrimiz yon – atrofiga yaqin sanoat yerlariga borar edim.

할아버지는 손으로 먼 산을 가라키셨다³³.

Bobom qo'li bilan uzoqdagi tog'ni ko'rsatdi.

6. 신체명사: 손, 눈

Tana-a'zolari nomlari: qo'l, ko'z.

Masalan:

아내가 울고 있는 동안 그는 일어서서 바지에 두 손을 찢른 채실내를 서성거렸다³⁴.

Ayoli yig'layotganida, eri qo'llarini shimining cho'ntagida turgan holatda unga mehr ko'zlari bilan qarab turdi.

가족같이 메마르고 딱딱한 손가락들이 떨어져 자꾸만 흐트러졌다³⁵.

U qo'llari bilan hech qanday asbobsiz terni tez-tez tozalab turardi.

어느 산의 정상에서 다정하게 팔짱을 끼고 있었다. 활짝 웃은 얼굴들이었다³⁶.

Qaysidir tog'ning cho'qqisida mehr to'la qalb bilan o'tirar edim. Xursandligim yuzimdan bilinib turar edi.

산을 넘고 멀리 멀리 헤어졌지만 바다 건너 두 마음은 멀어졌만³⁷.

Tog'ni ortda qoldirib, ikki qalb cheksiz dengizni kesib o'tib uchrashdi.

부둥킨 두 팔에 솟아나는 하얀 옷에 핏줄기 있다³⁸.

Qattiq hafa qilib qo'yganligini bilib, ikki oyog'iga chippa yopishdi.

지금 그 사람의 이름은 잊었지만 그의 눈동자 입술은 내 가슴에 있네³⁹.

³²정영문. 어떤작위의 세계. -서울, 2014, -35 쪽.

³³정영문. 어떤작위의 세계. -서울, 2014, -47 쪽.

³⁴O'sha joyda, -35 b.

³⁵천명관. 고래. 세계. -서울, 2014, -67 쪽.

³⁶O'sha joyda, -68 b.

³⁷간견애. 인간의 문제. -서울, 1970, -24 쪽.

³⁸O'sha joyda, -30 b.

³⁹권비영. 덕혜옹주. -서울, 2014, -43 쪽.

U insonning ismi yodimdan ko'tarilgan bo'lsa-da, uning ko'z qarashlari va lablari hanuz qalbimda bordir.

7. 물질명사: 가스, 고기, 고추가루, 고추장, 공기, 금, 기름, 물, 석호, 소금, 우유, 흙, 화합물, 철분, 지하수, 휘발유, 활성제, 절연체.

Moddalar nomi: gaz, go'sht, qalampir, garimdori, havo, oltin, yog', suv, sirka, tuz, sut, loy, lava, temir, yer osti suvi, benzin, katalizator, elektr o'tkazmaydigan modda.

Masalan:

플라스틱은 석유로 만듭니다.

Plastika neftdan qilinadi.

그 가방은 가죽으로 만든겁니까.

Bu sumka haqiqiy terdan qilingan.

물 한 컵만 주세요.

Bir payola choy bering.

Mavhum otlar turli narsalarda mavjud bo'lgan bir xil yoki o'xshash sifatlarni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, olma, qovun, shakar, qand otlarining muhim sifat belgisi «shirinlik» bo'lsa, shirinlik mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud bo'lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi. Shuning uchun muayyan va mavhum otlarning farqli tomoni faqatgina ularning haqiqiy (kitob, olma, eshik) yoki xayoliy (sevgi, ishq, shirinlik), umumiy va yakka narsalarni ifodalashida emas, balki belgi, sifat ma'nosining qay usulda talqin etilishi hamdir. Koreys tilida quyidagi mavhum otlar mavjud:

1. 추상명사: 각종, 간, 고속도, 넓이, 도덕, 마음, 병, 소문, 앙심, 양, 엉터리, 인연.

Mavhum otlar: har xil nav, tuz, yuqori tezlik, odob, ko'ngil, kasallik, mish – mish, nafrat tuyg'usi, miqdor, axloqsizlik, aloqa.

Masalan:

키가 몇 센티인가? 165 요.

Bo'yingiz nechmi santimetr? 165 santimetr.

슬픔이 할퀴가 간 자리 사랑은 아직도 남아 이 가을 외로움은 더 깊어가는데⁴⁰.

⁴⁰채우도, 아이리스 시리즈, -서울, 2000, -54 쪽.

Kuz mavsumi g'amginlik hukm suradigan davr bo'lib, bedor tunlarni kitob mutolaa qilish uchun yaxshi.

그때의 슬픔을 누가 알 수 있을까요?

Hafa ekanligimni kim ham sezardi?

2. 현상명사: 가뭄, 거품, 구름, 냄새, 눈, 먼지, 벼락, 별, 불, 서리, 소나기, 안개, 연기, 이슬, 장마, 향기, 킬로, 미터, 엔, 게으름, 피, 말짱, 아양, 양탈, 어리광, 억지, 응석, 익살, 행패, 값, 멋, 네모, 구석, 비탈, 기독교, 소유권, 과장급, 표기법, 능력별, 세계사, 사회성, 한국식, 노파심, 성장률.

Qirg'oqchilik, ko'pik, bulut, hid, qor, chang, chaqmoq, quyosh nuri, olov, ovoz, jala, tuman, tutun, shudring, yomg'ir mavsumi, ifor, kilogramm, metr, yen, dangasalik, ayyorlik, savsata, tannozlik, qaysarlik, ishvagarlik, sarkashlik, erkatoylik, hazilkashlik, tortinmaslik, narx, ta'm, qarilik, burchak, tikka, nasroniylik, mulkchilik, bo'rttirish, husnixat, qodirlik, butun dunyo tarixi, jamoat fe'l-atvori, koreys ovqatlari, behalovatlik, o'sish darajasi.

Masalan:

비를 맞으며 서 있는 그 모습은 더 없이 가련해 보였다⁴¹.

Yomg'ir tagida qolgan o'sha holati bechoralardek ko'rinardi.

바람이 불고 비가 올때도 나는 저 유리창 밖 가로등 그들의 밤을 잊지 못하지⁴².

Men shamol esib, yomg'ir yog'ayotgan paytda oshxona tashqarisida o'tkazgan tunimni esimdan chiqara olmayman.

원으로 환산하면 얼마가 됩니까?

Vonda hisoblasa qancha ekan?

요즘 달리가 많이 떨어졌대요.

Hozir dollar kursi ancha tushdi deb aytishdi.

3. 사항명사: 전염병, 문제점, 개량종, 결혼식, 전람회, 생각, 사실, 언어, 음악.

Holat nomlari: fikr, fakt, til, musiqa, Infeksiya, muammo, islohat, to'y, ko'rgazma.

Masalan:

⁴¹채우도, 아이리스 시리즈, -서울, 2000, -56 쪽.

⁴²O'sha joyda, -73 b.

그러다 보니 중매결혼이 더욱더 성행하게 되고, 상대방의 마음이 나 인품보다는 여러 가지 조건들을 더 따지게 되는 것이다.

Hozirgi kunda ko'pchilik zamonaviy shartlar asosida turmush qurishni xohlaganlari tufayli, sovchi orqali bo'ladigan to'ylar kamayib ketyapti.

그 사람의 또 다른 면모들을 볼 수 있었다⁴³.

Uning ikki yuzlamachiligini bila oldim.

이제 와서 헤어지자니 남은 사랑 어떡하라고 추억들은 어떡하라고요⁴⁴.

Endigina kelgan sevgidan qanday ayrilish mumkin deb aytishadi va undan qolgan xotirardan voz kechish qanday deb aytishadi.

눈 앞에 보이는 수많은 모습들이다.

Ro'paramda juda ko'p har xil ko'rinishlar.

탁자 위에 술병들은 늘어만 가고, 그는 점점 술로부터 힘을 얻는지 쓸데없는 말들을 신이 나선 늘어놓고, 우습지도 않은 말을 혼자 하고는 크게 소리를 내며 웃고는 하는 거였습니다⁴⁵.

U doim xontaxta ustidagi mayni olib, kam – kamdan ichib, o'ziga – o'zi bir nimalar deb g'o'ldirar edi, keyin bu g'o'ldirashi kuchayib, baland ovoz bilan kulishni boshlardi.

또 모든 시험들이 다 골라잡기식의 객관식 문제들이다.

Barcha imtihonlarni adolatli o'tkazmoq muammodir.

그 많은 고민들을 어떻게 처리해야 좋을지 몰랐다.

U ko'p qiyinchiliklarni qanday yutib chiqish kerakligini bilmas edi.

4. 위치명사가: 가운데, 결, 끝, 밑, 밖, 사이, 아래, 안, 위, 꼭대기, 맞은편, 모퉁이, 바깥, 복판, 안팎, 언저리, 쪽, 편.

O'rta, sirt, oxir, ost, tashqari, ora, tag, ichkari, ust, cho'qqi, to'g'ri yo'nalish, burchak, tashqari, markaz, ichkari va tashqari taraf, yoqa, taraf, tomon.

Masalan:

앞에서 뒤를 돌아다보았다.

U orqa – oldiga qarab aylanar edi.

⁴³O'sha joyda, -67 b.

⁴⁴조앤 롤링. 헤리포터 시리즈. -서울, 1989, -27 쪽.

⁴⁵츠츠이 야스다카. 시간을 달리는 소녀. -서울, 2000, -14 쪽.

5. 시간명사: 그믐, 때, 봄, 상순, 이십일, 이튿날, 일제시대, 지금, 직전, 처음, 해방후.

Vaqt otlari: ohirgi kun, vaqt, oyning boshi, 20-kun, 2-sana, yapon anyeksiyasi davri, hozir, yaqinda, boshida, ozodlikdan so'ng.

Masalan:

그 날은 아침부터 비가 내렸다.

O'sha kuni ertalabdan yomg'ir yog'di.

장윤길 20 일 밤에 살해됐습니다⁴⁶.

20 – kuni Changyun ko'chasida jinoyat sodir bo'ldi.

그 시간에 저는 그 분과 같이 있었다.

O'sha paytda men o'sha odam bilan birga edim.

이기사, 나 오늘부터 운전을 배울까 봐요.

Li, men bugundan boshlab mashina haydashni o'rganaman.

점심 시간이 훨씬 지난 늦은 오후였다.

Tushlik vaqti ancha o'tib ketdi.

이제부터 계약을 하자니까.

Endi shartnoma tuzamizmi?

사내는 물론 오래 전 소년기에 마을을 떠나간 금산택의 둘째였다⁴⁷.

Uzoq o'tib ketgan yoshlik davrlarimda, qishlog'imni tark etib, Kimsantek tog'ida hayot kechirganman.

6. 수량명사 (miqdor otlari): 일 킬로, 천원, 두 시간, 일할, 일등, 일번, 첫째, 두번째, 한번, 둘, 세 개, 네 벌, 일이.

Bir kilo, ming von, ikki soat, 10 prosent, birinchi o'rin, birinchi marotaba, birinchidan, ikkinchidan, bir marotaba, ikki, uchta, to'rt nafar, bir – ikki.

7. 색채명사: 빨강, 녹색, 자주빛

Rang otlari: qizil rang, yashil rang, to'q rang.

8. 성질명사: 가난, 건강, 무관심, 무리, 불편, 성실, 안전, 위험, 진실, 친절, 평등, 피로, 필요, 행복, 혼란, 부조리, 부도덕, 불합리, 불친절.

⁴⁶신경숙. 엄마를 부탁해. -서울, 1990, -34 쪽.

⁴⁷채우도. 아이리스 시리즈. -서울, 2000, -49 쪽.

Harakat nomi otlari: kambaga'llik, sog'lik, befarqlik, idroksizlik, qulaysizlik, sodiqlik, havfsizlik, qo'rquv, haqiqat, tenglik, charchov, zarurlik, baxt, xaos, bema'nilik, axloqsizlik, kaltafahmlik, nazokatsizlik.

Masala:

하지만 그만큼 저의 불안은 감당할 수 없을만큼 깊어만 갔고 이미 좋아하게 된 그를 만나기가 두려웠습니다⁴⁸.

Lekin mana shunga o'xshash tashvishni bo'ynimga ololmagandek, xursandchilikni ham ich – ichimdan seza olmayman.

시장이 반찬이다⁴⁹.

Ochligingda hamma narsa shirin ko'rinad.

9. **활동명사:** 감격, 고민, 고생, 의식, 자랑, 조심, 호흡, 가위바위보, 고향, 꾸지람, 도달, 문단속, 발전, 보급, 보존, 복사, 사과, 사치, 설거지, 성장, 소매, 인쇄, 저지, 전공, 접근, 제외, 진보결눈질, 고자질, 누비질, 동냥질, 딸꾹질, 땀질, 뜨개질, 뜸질, 못매질, 발길질, 사냥질, 소꿉질, 손질, 숨바꼭질, 싸움질, 양치질, 입질, 찜질⁵⁰.

Harakat nomlari otlari: hayajon, tashvish, qiyinchilik, idrok, g'urur, ehtiyotkorlik, dam, “qaychi, bochka, qog'oz” o'yini, og'ir sharoitlarda ta'lim olmoq, gina, yetishish, qulflash, rivolanish, tarqalish, saqlash, takrorlash, afv etish, dabdaba, yuvish, o'sish, chakana, bosish, halaqit berish, asoslanish, yaqinlashish, o'chirish, yuksalish, yon tomondan ko'rish, chaqimchilik qilish, qavish, sadaqa qilish, hiqichoq tutish, masxarabozlik qilish, to'qish, uzish, kaltaklash, qadam tashlash, ov qilish, xola – xola o'ynash, qayta ishlash, bekinmachoq, urushish, tish tozalash, erishish, kompress qo'yish.

Masalan:

헌데 사건은 내려서부터 시작이었어요. 글썄, 내 뒤를 따라오며 떠들기 시작하는 거예요⁵¹.

U baxtsiz hodisaning boshi edi. Men orqaga qarasam shovqin boshlanibdi.

이렇게 힘 없이 입을 연 저의 얼굴엔 계획에도 없는 눈물이 흐르고 말았습니다⁵².

⁴⁸채우도. 아이리스 시리즈. -서울, 2000, -54 쪽.

⁴⁹Koreys maqoli.

⁵⁰노마 히데키. 한국어 어휘와 문법의 상관구조. -서울, 2002, -301 쪽.

⁵¹채우도. 아이리스 시리즈. -서울, 2000, -67 쪽.

⁵²이정명. 뿌리깊은나무. -서울, 2014, -82 쪽.

Uni bunday holsizlikda, besabab ko'z yoshi oqayotganini hech ham ko'rmaganman.

서둘러 선배 언니가 일러준 찻집에 들어서서는 언니와 함께 앉아 있는 낯선 남자 앞에 다소곳이 앉아 **호흡**을 가다듬었습니다⁵³.

Katta kursda o'qiydigan qiz shoshib ketayotib, uni boshqa bir qiz bilan uy ostonasida o'tirganini ko'rib nafasi ichiga tushib ketdi.

하지만 **고민**도 그날부터 시작되었습니다.

Afsuski hayajon ham o'sha kundan boshlandi.

내 노력으로 할 수 있는 건 뭐든지 하겠지만 **고민** 시작되었습니다⁵⁴.

Men o'z qobiliyatim bilan nima qila olishimni bilsam – da ko'p tashvishlanaman.

⁵³이정명. 뿌리깊은나무. -서울, 2014, -91 쪽.

⁵⁴O'sha joyda, -13 b.

2-bob. Madaniyatlararo muloqotni koreys tilidagi mustaqil otlar misolida o'rganish

2.1. Koreys tilidagi mustaqil otlar milliy madaniy semantikasini koreys ovqatlari misolida ko'rib chiqish

Dunyoda nechta xalq bo'lsa har birining boshqalarnikiga o'xshamagan betakror madaniyati mavjud. Aynan mana shu madaniyat millatni borligini, tirikligini ko'rsatib turadi. Bu milliylik xalqning turmush tarzida, kiyinishida, ovqatlaridagina emas balki leksikasida ham ko'zga tashlanadi.

Realia-odatda biror millatga xos bo'lgan etnomadaniy ma'lumotlar tashuvchi so'zlar hisoblanadi. Realialarning o'ziga xos jihati uni boshqa tildagi ekvivalenti bo'lmaydi.

Shu jumladan koreys xalqining o'zigagina xos bo'lgan mentalitet koreys tilining frazeologiyasida, leksikasida ham namoyon bo'ladi.

Koreys tili milliy – madaniy so'zlarga boy. Bu so'zlar koreys xalqining o'ziga xosliklarini ochib berishda juda katta rol o'ynaydi. Bunday so'zlarni o'rganar ekanmiz, koreys millatining tarixi, madaniyati, turmush-tarzi, mentaliteti haqida to'liq ma'lumot olamiz. Milliy-madaniy so'zlar shunday bir xususiyatga ega-ki, ular butun bir boshli holatni, vaziyatni aniqlab kela olishi mumkin. Bunday so'zlar asosan koreys xalqiga o'tmishdan yetib kelgan hisoblanadi. Bunday so'zlarni biz asarlarda uchratar ekanmiz, tarjima qilish jarayonida ancha qiynalishimiz sir emas. Chunki bir dona milliy-madaniy so'z insonning jamiyatda tutgan o'rni, fe'l-atvori, sog'lig'i, turmush tarzini anglatib kelishi mumkin. Bunga misol tariqasida o'tmishdagi feodal tizimidagi tabaqalarning yashash tarzini olishimiz mumkin. U davrda oliy tabaqadagi shaxs yeydigan, kiyadigan narsalarni hech qachon quyi tabaqadagi shaxs kiyib, yeya olmagan. Bunga haqqi ham bo'lmagan. Kiyim, ovqatlar leksimasi qandaydir shaxsga nisbatan ishlatilganda, uning cho'ri, qul, dehqon, yanban yoki amaldor ekanligini osonlikcha bilib olish mumkin bo'lgan. Lekin tarjima jarayonida bu so'zlar o'z xususiyatini va kuchini yoqotishi aniqdir. Chunki milliy-madaniy so'zlarni izohlab berishga to'g'ri kelib qoladi.

Koreys tilining milliy va madaniy so'zlari va iboralarini bir necha guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin. Bular quyidagilar:

- a) Koreys millatining taomlariga oid so'zlar.
- b) Koreys millatining kiyimlariga oid so'zlar.
- c) Koreys millatining hayot tarziga oid so'zlar.
- d) Koreys millatining bayramlari va urf-odatlariga oid so'zlar.

밥⁵⁵ – guruch yoki arpa kabi don mahsulotlariga suv qo'shib, qaynatilib pishiriladigan taomdir. Qaysi don mahsulotidan qilinganiga qarab guruchli pap, arpali pap, tariqli pap kabi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Lekin 밥 deyilganda asosan guruchli 밥 ni nazarda tutishadi. 밥 tanovul qilayotgan odamga qarab har xil nomlanadi. Masalan: yoshi katta insonlarga nisbatan 진지 so'zi, qiroлга nisbatan 수라 so'zi, qurbonlik stoliga qo'yilganda esa 메 so'zlari ishlatiladi. 밥 ning bunday ko'p nomlarga egaligi, uning koreys millati hayotida qanchalik chuqur o'ringa ega asosiy taom ekanligini ko'rsatadi. Koreys millati tarixida 밥 ning paydo bo'lishi neolit davriga to'g'ri keladi.

Masalan:

그런 직업을 가지 고밥을 먹을 수 있을지 머르겠다⁵⁶.

Bunday kasb bilan kun ko'ra olamizmi yo'qmi bilmadim.

공부가 밥먹여주는 것도 아닌데 그렇게 고생하면서 할 필요가 있을까⁵⁷?

O'qishning foydasi yo'g'-u, shunchalik qiynalish shartmikin?

자식들이 맛있게 먹는 것만 봐도 어머니는 밥을먹지 않아도 배부르다고 하신다⁵⁸.

Ona bolalarinig ovqatni ishtaha bilan yeyayotganini ko'rib qornim to'q deb aytdi.

시계가 죽었나 보다. 시간도 맞출 겸 밥좀줘라

Soat buzilgan ko'rinadi. Soatni to'g'rilab, burab qo'y.

졸업하고 밥이나 축내는 신세가 되지않으려면 지금 열심히 공부해야 한다⁵⁹.

⁵⁵학고재. 우리 문화. 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -12 쪽.

⁵⁶사감과 러브레터. 현진건. -서울, 2014, -61 쪽.

⁵⁷김동인. 감자. -서울, 1987, -3 쪽.

⁵⁸서정인. 강. -서울, 1987, -51 쪽.

⁵⁹오영수. 갯마을. -서울, 1996, -43 쪽.

Bitirgandan so'ng qiladigan ishi yo'q bekorchi bo'lmaslik uchun hozir astoydil o'qish kerak.

밥줄이 끊기고 나니 살 길이 막막하기만 하다⁶⁰.

Ishdan bo'shagach yolg'iz qoldi.

멀쩡하게 나갔던 사림이 물고기 밥이 되었던니 믿어지지 않아요⁶¹.

Butun boshli inson suvga yiqilib o'lganiga ishonolmayapman.

기름밥을 먹고사는 놈이 언제 돈을 모으겠어요⁶².

Zavod orqali kun ko'radigan kishi qachon pul yig'ardi-yu.

오곡밥⁶³ – bu 밥 ning bir turi hisoblanib, u 5 xil don mahsuloti ya'ni guruch, arpa, tariq, loviya, 기장 kabi don mahsulotlaridan tayyorlanadi. Yopishqoq don mahsulotlarini ishlatib qilinadigan 밥 ga esa yopishqoq guruch, perilla, yopishqoq gaolyan, qizil loviya, qora loviya kabi mahsulotlar solinib qaynatib pishiriladi. Hozirda 밥 ni shu tariqa tayyorlash keng tarqalgan. Oddiy 밥 dan farqi suvni kamroq solib, tuzlab pishirilishidadir. 오곡밥 koreys millatining 대보름 bayrami asosiy taomi hisoblanib, bu taomni xonadonlar aro bo'lishib yeyish va kun bo'yi ozgina ozginadan yeyish odat bo'lib qolgan.

Masalan:

오늘날, 오곡밥의 조리 방식은 바뀌어져 가고 있다. 한국인들은 곡물의 과거의 재료에 의존하지 않고 어떤 종류와 함께 오곡밥을 만든다. 오곡밥은 영양과 건강의 도움으로 한국인들이 많이 즐기고 있다⁶⁴.

Hozirgi kunda Ogokpapning pishirish usullari o'zgarib ketyapti. Koreyslar qadimdan ma'lum bo'lgan masaliqlardan yangi usul orqali Ogokpap tayyorlayaptilar. Koreyslar Ogokpapning sog'liqqa foydali ekanligini juda yaxshi biladilar.

반찬⁶⁵ – asosiy taom va 밥 ga qo'shilib iste'mol qilinadigan qo'shimcha taomlar nomi hisoblanadi. Koreyslarning taomi 밥, asosiy taom, qo'shimcha

⁶⁰현진건. 고향. -서울, 1996. -103 쪽.

⁶¹이광수. 꿈. -서울, 1983. -37 쪽.

⁶²조세희. 난장이가 쏘아올린 작은 공. -서울, 1990. -23 쪽.

⁶³학고재. 우리 문화 길라잡이. 국립국어연구원. -서울, 2002. -15 쪽.

⁶⁴조지 오웰. 동물농장. -서울, 1994. -75 쪽.

⁶⁵학고재. 우리 문화 길라잡이. 국립국어연구원. -서울, 2002. -31 쪽.

taomlar va ovqatlangandan so'ng iste'mol qilinadigan yengil taomdan iborat. 반찬 ni tayyorlayotganda e'tibor beriladigan bir tomoni 반찬 dagi issiq taom va sovuq taomlarning miqdorini bir xilda bo'lishidir. 반찬 fasllarga qarab har xil bo'lishi ham mumkin.

Masalan:

그가 대학 동창들과 함께 홍로를 따라가자고 했을 때 그녀는 식탁과 냉장고 사이에서 멈춰 섰다. 그녀는 마늘장아찌가 담긴 반찬 통을 들고 있었는데 반찬을 꺼내려고 했던 것인지 아니면 냉장고에 집어넣으려고 했던 것인지 순간 헷갈렸다⁶⁶.

U qiyinchiliklarga uchraganda kursdoshlari oshxonama-oshxona, ko'ngil xushliklar qilib yurishar edi. U bo'lsa jindakkina qolgan panchanni hayol surib yeb, shu panchan bilan o'tayotgan har bir daqiqasini eslab qolishga harakat qilar edi.

김치⁶⁷ - 김치 ning asosiy mahsulotlari quyidagilardan iborat: bargli karam, turpning ba'zi turlaridir. Bu sabzavotlarga achchiq qalampir, tuzlangan baliq, piyoz, sarimsoq piyoz, imbir, tuzdan tayyorlangan ziravorlar qo'shib achitib tayyorlanadi. 김치 koreys millatining stolidan olib tashlab bo'lmaydigan uzoq o'tmishdan beri 반찬 lar orasidagi eng muhimi hisoblanib kelingan. Bundan tashqari 김치 ni bodring, baqlajon, kunjut bargi, yosh turpdan ham tayyorlash mumkin. Lekin odatda 김치 ko'pincha bargli karamdan tayyorlangani uchun bu 김치 eng mashuri hisoblanadi. 김치 odatda kuz oylarida juda katta miqdorda tayyorlanib qishga olib qo'yiladi. Koreys millati 김치 ni tayyorlash uchun alohida oyni belgilab qo'yganlari uning koreys madaniyatida juda katta ma'noga ega ekanligini ko'rsatadi.

Masalan:

그렇게 김칫국물부터 마시다가 일이 뜻대로 되지 않으면 그절망을 어떻게 감당하려고 그러나⁶⁸.

Bunday sheriging bilan maslahatlashmasdan faqat o'z qaroring bilan qilingan ish aytganingdek bo'lmasa bu muvaffaqiyatni qanday qilib bo'yningga olasan?

⁶⁶김정환. 모래톱 이야기. -서울, 1994. -27 쪽.

⁶⁷학교재. 우리 문화 길라잡이. 국립국어연구원. -서울, 2002. -33 쪽.

⁶⁸김동리. 무녀도. -서울, 1993. 10 쪽.

찌개⁶⁹ - bu taom go'sht yoki sabzavotlarga achchiq qalampir va soya pastasi hamda tuzlangan bodring sho'rvasi qo'shilib, qaynatilib pishiriladigan 반찬 hisoblanadi. 국 ga nisbatan suvi kam va tuzlanish darajasi kuchliroq bo'ladi. 찌개 so'zi choson davrining yozma manbalarida uchramagan bo'lsada, lekin o'sha davrlarda 조치 so'zi bilan ishlatiladigan so'zni shu so'zning avvalgi nomi deb atash mumkin. 찌개 ni tayyorlayotganda qanday mahsulotdan foydalanilganiga qarab bir necha turlarini keltirish mumkin.

가끔씩 엄마가 뭐 먹고 싶냐고 물어볼 때가 있거든. 된장찌개라 치면, 우리집에선 된장찌개 옵션이 세 가지야⁷⁰.

Onam sekin mendan nima yeyishimni so'radi. Agar chige yemoqchi bo'lsam, bizning uyda chigening uch xil turi tayyorlanadi.

두부⁷¹ - loviyani maydalab tayyorlanadigan mahsulot hisoblanadi. Uni tayyorlash oson va qulay bo'lganligi sababli koreys millati uni uylarida tayyorlab iste'mol qilishni ma'qul ko'radilar. Uni tayyorlash uchun oq loviyani yaxshilab yuvib, so'ngra unga yetarli darajada suv solinib maydalanadi. Keyin uni quritib, hosil bo'lgan quyuq quyqani qattiq va qo'pol matoga o'rab qattiq siqib loviyaning suvini chiqarib olinadi. Loviya suvini qaynatib sekin aralashtirilib turiladi. Bunday tarzda tayyorlanadigan mahsulotni 순두부 deb ya'ni sof 두부 deb ataladi.

Masalan:

데솔이가 오늘은 저네 집에서 두부를 한다고 했다. “두부는 혼자 먹는 게 아니다. 저네 밥네(식구)들 끼리만 먹는 건 더더욱 아니다.”라고 엄마가 말씀하셨다⁷².

Har doimdek bugun ham uyimizda tufu pishirildi. “Tufuni yolg'iz yeb bo'lmaydi. Agar tufuni oila a'zolaringsiz yesang, u sening qorningni to'ydirmadi ham,” – dedi onam.

떡⁷³ - don mahsulotlari unini 시루 ga solib, bug'lab pishirib yoki bug'lab pishirilgan mahsulotni hovonchaga solib, yaxshilab maydalab so'ngra pishiriladi. Bu mahsulot nafaqat Koreyada balki Koreyaning qo'shni davlatlari Hitoy va

⁶⁹학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002. 39 쪽.

⁷⁰입센. 바다에서 온 여인. -서울, 1991. 17 쪽.

⁷¹학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002. 55 쪽.

⁷²현지진. 빈치. -서울, 1996, -87 쪽.

⁷³학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002. -72 쪽.

Yaponiyada ham tayyorlanadi. Lekin Koreyada 떡 yopishqoq bo'lmagan guruchdan tayyorlansa, Hitoyda undan, Yaponiyada esa bug'lab pishirilgan yopishqoq guruchdan tayyorlanadi. 떡 asosan kuz va qish oylarida yeyiladi. Shuningdek 돌, 환갑, 잔치 kabi bayramlarida dasturxonda 떡 ning bo'lishi shart hisoblanadi.

Masalan:

별것도 아닌 녀석이 절난 채만하다가 이겨 놓은 경기를 떡을 만들어 놓았다.

Arziydigan biror narsani bilmaydigan bolapaqirlar o'ziga ortiqcha baho bergani sabab yutilayotgan musobaqani beliga tepdi.

갑자기 여자친구가 둘이나 생기니까 두 손에 떡을 들고 어쩔 줄을 모르고 있구나.

To'satan sevgan qizim ikkita bo'lib qolgani uchun besh qo'limni baravar og'zimga tiqib nima qilishimni bilmayapman.

그 여자는 나에게 그림의 떡이야. 일찍 포기하는게 좋아⁷⁴.

Bu qiz men uchun bir xomxayol.Undan ertaroq voz kechganim yaxshi.

그정도 뛰어넘는 것은 누워서 떡 먹기이다.

Bunaqa yugurib o'tish juda oson.

송편 ⁷⁵ - yopishqoq bo'lmagan guruch uniga qaynatilgan suvni solib, hamir qorilidi. Uni yarim oycha shaklida tugiladi va parda pishirib olinadi. Uni ichiga solinadigan masalliq esa loviya, no'xat, jujuba,kunjutdan tayyorlangan 소 dan iborat bo'ladi. 송편 asosan 추석 bayramlarida iste'mol qilinadigan taom hisoblanadi. 추석 bayrami kelganda butun oila a'zolari yig'ilib, yangi hosilli guruchdan 송편 ni tayyorlab qo'ni- qo'shnilariga ulashib iste'mol qilish odat tusiga kirgan.

Masalan:

충청도 사람들은 강원도 사람들이 만드는 송편 스타일과는 한참 다르다⁷⁶.

Songpyonni chungchondoliklar tayyorlaydigan uslub bilan kangvandoliklar tayyorlaydigan uslubi turlicha.

⁷⁴홍태식. 봄봄. -서울, 1992, -19 쪽.

⁷⁵학교재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -75 쪽.

⁷⁶김유정. 소낙비. -서울, 1988, -11 쪽.

막걸리⁷⁷ - bu Koreyaning qadimiy spirtli ichimliklaridan biri hisoblanib, Koreyada eng uzoq tarixga borib taqaladigan spirtli ichimlik hisoblanadi. Uning o'ziga hos ta'mi bo'lgani bilan birga nordon, yoqimsiz va qimizak ta'mga ham egadir. Qadim o'tmishda bu ichimlik dehqonlar oilasidagina tayyorlanib iste'mol qilinganligi uchun uni 농주 deb ham ataganlar. Bu ichimlik uzoq o'tmishdan buyon ya'ni Uch Qirollik davlati davridan buyon oddiy aholini charchoqlarini yozishda xizmat qilib kelgan spirtli ichimlik hisoblanadi.

Masalan:

아주 탁하지 않고 맑은 편이다. 그렇기 때문인지 마실 때 막걸리 특유의 텁텁함은 덜하고 깔끔한 목넘김이 느껴진다⁷⁸.

Ko'p ichmaydiganlar turidanman. Shuning uchun ichayotgan paytda makkolini o'z uslubim bilan ya'ni kam – kamdan hop'lab, har qultumning kuchi o'tganini sezganimdan so'ng ikkinchi qultumni ichaman.

소주⁷⁹ - don mahsulotlari yoki shakarqamishning turlaridan tayyorlanib, ularni achitgandan so'ng suyuqlikni turli aralshmalardan ajratib olib ushbu spirtli ichimlikni tayyor holga keltirish mumkin. Uni aralshmalardan tozalanganligi sababli tiniq va tozaligi bilan boshqa spirtli ichimliklardan ajralib turadi. Tarkibida qanday don mahsuloti solinganiga qarab ta'mi har xil bo'ladi. Bu ichimlikning paydo bo'lish davri Koryo davlatining oxirlab qolgan Mo'g'ullar bosqinchiligi davriga to'g'ri keladi. 소주 ning tarkibi guruchdan tarkib topganligi va uni 막걸리 va 청주 spirtli ichimliklariga qaraganda mast qilish darajasi yuqori bo'lgani uchun oliy tabaqa vakillari dori o'rnida ichib kelgan qimmatbaho ichimlik hisoblangan.

바다, 한잔의 소주와 같은 바다였다⁸⁰.

Pir payola sojuga o'xshash dengiz edi.

⁷⁷학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -107 쪽.

⁷⁸이숙. 우화로 통해 본 이숙의 생애. -서울, 1992, -49 쪽.

⁷⁹학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -101 쪽.

⁸⁰안수길. 제삼 인간형. -서울, 1992, -43 쪽.

2.2. Koreys kiyimlar leksimasi misoli yordamida koreys tilidagi mustaqil otlar semantikasining milliy o'ziga xosliklarini o'rganish

한복⁸¹ - koreys millatining milliy libosi ma'nosini anglatuvchi so'z hisoblanadi. 한복 ning ko'rinishi uzoq o'tmishdan beri mavjud bo'lgan bo'lsada, unga biroz o'zgarishlar kiritilgan. Hozirda kiyiladigan 한복 Choson davridan qolgan shakl uslubida tikiladi. Ayollarning 한복 i 저고리 va 치마 dan erkaklarning 한복 i esa 저고리 va 바지 dan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda 한복 kundalik kiyim bo'lmasa ham, bayram va to'y marosimlariga o'xshagan yig'inlarda kiyish odatiy hisoblanadi. 한복 ning o'ziga xos bir xususiyati bu odam o'zini erkin tutaolishi va libosning qulayligidir. Buning sababi 한복 yopishib turmaydi va keng bichimda bo'lishidir.

Masalan:

내 어린시절 기억속의 할머니는 머리가 하얗게 서리내린듯 했고 늘 흰저고리를 입고 있었으며 흰 고무코신을 신고 다니셨다. 할머니는 남들이 명절에만 입는 한복을 평소에도 입었는데 한복에 대한 애착이 대단했다⁸².

Yoshligimda esimda bor, buvijonim oppoq sochlariga doim hvenchokorini taqib, hvenkomukoshinni kiyib yurar edilar. Boshqalar faqat bayramlarda kiyadigan hanbokni buvijonim oddiy kunlarda ham faxrlanib kiyib yurar edilar.

저고리⁸³ - 저고리 ayollar ham erkaklar ham kiyadigan 한복 ning ustki qismi hisoblanadi. 저고리 ning umumiy shakli o'xshash bo'lsada, ayollar va erkaklar 저고리 si orasida bir necha farqlar mavjud. Erkaklarning 저고리 sining uzunligi belning pastki qismigacha bo'lsa, ayollarning 저고리 sining uzunligi esa ko'krakning pastki qismigacha ya'ni juda kalta bo'ladi. 저고리 ning rangi deyarli bir xil rangda bo'lsada, lekin yoqa va yeng qismini boshqa matolardan qo'shib yorqin ranglarda bezashadi.

Masalan:

대학에서 한복, 저고리와 두루마기를 입을 때 따 웃기를 보고 화가 났다⁸⁴.

⁸¹학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -120 쪽.

⁸²강신재. 젊은 느티나무. -서울, 1991, -59 쪽.

⁸³학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -122 쪽.

⁸⁴강신재. 젊은 느티나무. -서울, 1991, -60 쪽.

Istitutda hanbok, chogori va turumagini kiyganimni ko'rib kulganlar meni g'azabalantirdilar.

장옷⁸⁵ - Choson davri ayollari tashqariga chiqqanlarida yuzlarini berkitish uchun ishlatilgan libos hisoblanadi. Bu libosning shakli 두루마기 ya'ni 한복 ning ustki libosiga o'xshash bo'lib, yoqa va 고름 ya'ni 한복 ning old qismida joylashgan bir-biriga boylanadigan ikki matoni boshqa rangda qilinadi va yengni oq rangdan keng qilib tikiladi. Choson davrida 7 yoshga to'lgan qiz va yigitlarning bir joyda o'tirishi man etilgan va yigit kishiga yuzini ko'rsatmasligi kerakligi haqida uqdirilgan. Bu libosdan asosan oddiy aholi foydalangan. Hozirgi kunda koreys millatiga g'arbcha turmush tarzi kirib kelayotgani uchun bu libos butunlay yo'qolib ketgan.

Masalan:

그녀 했던 나쁜 이를 장옷도 못 숨긴다⁸⁶.

U qilgan yomonliklarni hatto changot ham berkita olmaydi.

상투⁸⁷- erkaklarning milliy soch turmagi hisoblanib, uzun sochlarni hammasini ko'tarib boshning tepa qismida yig'ilib boylanadi. Bu soch turmagi yigit uylanganini yoki milliy urf-odatlarni bajarib balog'atga yetganligini bildirish maqsadida turmaklangan. Bu turmak buzilmasligi uchun oltin, kumush va bronzadan yasalgan 동곳 deb atalgan cho'pni sochlar orasiga tiqib qo'yilgan. Sochlar peshonaga tushmasligi uchun esa peshona qismiga ot yolidan yasaldan 망건 deb atalgan tasma boylangan. Lekin 1895 - yilda g'arbcha uslubda kalta qilib kestirish urfga kiradi va 상투 sekin asta yo'qola boshlaydi.

갓⁸⁸ - qadimda katta yoshli erkaklar tashqariga chiqqanlarida kiyiladigan bosh kiyim hisoblanadi. U 양태 deb atalgan bosh kiyimning keng soyaboni va bosh kiyimning o'rtasida silindr shaklidagi bo'rtib chiqqan shakldagi bosh kiyimdan iborat. 갓 ning ikki chetida osilib turadigan arqon bog'lansa, bosh kiyim mustahkam bo'lib joylashadi. Umuman olib qaraganda bu bosh kiyim Uch Qirollik

⁸⁵학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002. -134 쪽.

⁸⁶이기영. 민촌. -서울, 1992. -49 쪽.

⁸⁷학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002. -140 쪽.

⁸⁸학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002. -142 쪽.

davrida quyosh nuri yoki yomg'irdan saqlanish maqsadida kiyilgan. Lekin Choson davriga kelib aniq bir ma'noga ega bo'la boshlagan. Choson davrida bu bosh kiyim oliy tabaqa vakillari va ilmi kishilarni ramziy belgisi bo'lib hisoblangan. Odamlar shu bosh kiyim orqali aholining ijtimoiy kelib chiqishini aniqlay olishgan.

땡기⁸⁹ - bu yig'ilgan sochning oxiriga bog'lab uzun qilib tushirishda foydalaniladigan mato hisoblanadi. Bu matoni qadimda ayollar soch bezagi sifatida ishlatganlar. Uning uzunligi odatda 24-25 sm, eni esa 2-3smdan iborat bo'lgan. Odatda turmushga chiqqan ayollar sochlarini yig'ib soch to'g'nog'ichni tiqib qo'yganlar. Lekin yanada chiroyliroq ko'rinish uchun 쪽땡기 dan foydalanganlar. Yosh bolalar ham 땡기 dan foydalanganlar. Ularning 배씨땡기, 제비부리땡기, 도투락땡기 kabi turlari mavjud. 배씨땡기 ni sochi hali yaxshi o'smagan 3-4 yoshli bolalarga taqolgan. 도투락땡기 esa sochi uzun bo'lmagan bolalarga taqilgan va nihoyat 제비부리땡기 esa hali turmush qurmagan qiz va yigitlarga taqilgan. Ayollarniki qizil rangda, erkaklarniki qora rangda bo'lgan.

족두리⁹⁰ - ayollar sochini go'zal tarzda bezash maqsadida boshning ustki qismiga qo'yilgan bosh kiyim shaklidagi bezakdir. Qora ipak matodan tikilib, ichki qismiga paxta solinadi. Uning pastki qismi dumaloq shaklda bo'lib, ustki qismi burchaklari aniq bir shaklda bo'lmagan olti burchakli shaklda bo'ladi. Shuning uchun ham qora oddiy bosh kiyimi kabi ko'rinadi. Uning ustki qismini hech bir bezak ishlatmasdan kiyiladiganlari ham bo'lishi bilan birga, ustki qismi marjon va durlar taqilib, har xil rangdagi kashtalarni qo'shib yorqin rangda bezab kiyiladiganlari uchraydi. 족두리 faqat tushmushga chiqqan ayollar tomonidan kiyilib, to'y marosimi va boshqa ziyofatlardagina kiyish odat tusiga aylangan. Asli bu bosh kiyimni mo'g'ul ayollari kundalik hayotlarida foydalangan bo'lsalarda, bu bosh kiyim Koreyaga oddiy bezak sifatida kirib kelgan. Shuning uchun bu bosh kiyimi hozirda oddiy bosh kiyimi sifatida emas, balki tushmushga chiqqan ayollarning bosh qismining bir bezagi sifatida foydalanib kelinmoqda.

Masalan:

⁸⁹학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -148 쪽.

⁹⁰O'sha joyda, -152 b.

한복을 곱게 차려입고 **죽도리**를 쓰고 불엔 연지곤지를 바르고서 우리집 대문을 나는 엄마를 바로 볼 수가 없다 부끄럽고 두근두근 가슴은 왜이리뛰는지⁹¹...

Hanbokni chiroyli qilib kiyib olgan, chokdorini chiroyli qilib taqib olgan onamni uyimiz darvozasiga mo'ralab ham ko'rolmaganimdan yuragim hapqirib ketdi.

보자기⁹²- narsalarni o'rash yoki yopishda ishlatiladigan to'rtburchak shaklidagi mato hisoblanadi. 보자기 ni qachondan boshlab nima maqsadda foydalanilgani aniq emas, lekin odamlar narsalarni olib yurishda va narsalarni saqlashda shu matodan foydalanib kelishgan. Bu mato koreys millatining turmush tarzida keng qo'llaniladigan narsa hisoblanadi. Masalan bu mato turmush tarzida narsalarni o'rab qo'yish, narsalarni ostiga yozishda ishlatilsa, to'y marosimlarida esa qarama-qarshi tomonga sovg'a jo'natilganda, 기우제 ya'ni qurbonlik marosimi o'tkazilayotganda qurbonlik qilinayotgan joyga yozish yoki avlodlarning siymolarini o'rab qo'yish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. 보자기 koreys turmush tarzida kerakli buyumgina bo'lib qolmay, unda koreys millatining go'zallikni shaydosi ekanligi va koreys millati falsafasini ham o'zida jamlagan. 보자기 ning rangi, ishlatilgan matosi, bezagiga qarab, hamda mato qirqimlarini bir-biriga ulab, kashtalarni qo'shib tikilishiga qarab ham har xil turini ajratish mumkin. Oddiy aholi har xil mato qirqimlaridan tikib foydalanishganligi ham koreys ayollarining oqilligini ko'rsatib turadi. 보자기 ga solingan kashta bezaklarida ham koreys millatining yaxshi niyatlari va umidlarini ko'rish mumkin. Masalan daraxt, gul, meva, qush, kapalak kashtalari orqali baxt timsolini ko'rsatib berishgan.

짚신⁹³ - somondan to'qiladigan oyoq kiyim turidir. Qadimda ko'pchilik aholi dehqonchilik bilan shug'ullangani sababli somon har bir odam topishi oson bo'lgan material hisoblangan. Hosil yig'imi mavsumi tugaganidan so'ng dehqonchilik qilib bo'lmaydigan qish mavsumida dehqonlar somondan arqon o'rib, oyoq kiyim to'qishgan. 짚신 Uch Qirollik davridan beri kiyib kelinadigan eng mashhur oyoq kiyimidir. 짚신 unchalik boy bo'lmagan 양반 sinfi ham kiygan

⁹¹이태준. 복덕방. -서울, 1992, -21 쪽.

⁹²학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -164 쪽.

⁹³O'sha joyda, -136b.

bo'lsada, asosan oddiy aholi keng foydalangani sababli bu oyoq kiyim oddiy aholining ramziga aylanib qolgan.

Masalan:

사람은 **짚신**뿐만 아니라 높은 수준의 지식도 자기 마음의 밑거름으로 삼거나 사람답게 살기 위한 지혜를 얻는 수단으로 삼기도 합니다⁹⁴.

Chipshin yuqori tabaqadagi inson mavqearasini bermasa – da, odam insondek yashayotganini belgilab bera oladi.

나막신⁹⁵ - taxtadan yasalgan oyoq kiyim turidir. Choson hukmronligi davrida bu oyoq kiyim poshna qismi biriktirilgan ko'rinishda bo'lgan. Poshna yomg'ir suvi va loyning sachrashiga qarshi qilib, alohida yasalmasdan, qarag'ay daraxtidan bitta butun qilib o'yib ishlangan. Ba'zida esa poshna qismini ishqalanib yo'q bo'lib ketishiga qarshi poshna tagiga temir yopishtirishgan. **나막신** ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi va yoshidan qat'iy nazar ya'ni barcha uchun qulay oyoq kiyim hisoblangan. Ammo og'ir va uzoq yo'l yurishda yoki ot minishda bu oyoq kiyimdan foydalanilmagan. Bu oyoq kiyimni kiyib yurganda taqillagan tovushi chiqqani sababli past tabaqa vakillari va yosh bolalar 양반 va yoshi katta odamlar oldida bu oyoq kiyimni kiyishlari odobdan hisoblanmagan.

그뿐만 아니라 많은 사람의 손과 얼굴, 헐벗은 발과 **나막신**까지도 물들었다⁹⁶.

Bundan tashqari ko'p odamning qo'li va yuzi, oyoq va namakshini birdek bo'lib ketgan.

⁹⁴주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울, 1992, -59 쪽.

⁹⁵학고재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원. -서울, 2002, -138 쪽.

⁹⁶주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울, 1992, -60 쪽.

2.3. Koreys millatining oddiy hayot tarzi, bayramlari va urf- odatlariga oid otlarining semantik tahlili

온돌⁹⁷ - xonaning pol qismini issiq qilib beruvchi koreys millatining o'ziga xos isitish usuli hisoblanib, u o'txona, quvur, tosh plita, mo'ridan iborat. O'txona xonadan tashqarida joylashgan olov yoqiladigan xona hisoblasa, quvur esa o'txonada yoqildan olovning issiqligi va tutunini xonaga olib borib beruvchi yo'l hisoblanadi.

Tosh plita esa quvurni berkitib turuvchi yupqa va keng toshdan yasalgan pol hisoblanadi. Bu tosh plita quvurdan kelgan issiqlik orqali polni qizdirib beruvchi vazifani bajaradi. Mo'ri esa quvur orqali kelgan tutunni xonadan chiqarib yuboruvchi vazifani bajaradigan joydir. 온돌 Koreyaning sovuq shimol viloyatlarida keng tarqalgan isitish usuli hisoblanib, hozirda barcha viloyatlarda qo'llanilib kelmoqda. Koreys millati 온돌 da katta oila bo'lib o'tirib, suhbat qurishni yoqtirishadi. Hozirda Koreyaning rivojlangan viloyatlarida ham alohida 온돌방 ni qurib qo'yishligidan ham uning koreys millati madaniyatining bir qismi ekanligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Masalan:

그는 온돌이 있는지를 알고 기뻐했다⁹⁸.

U ondol borligini bilib o'zida yo'q xursand bo'lib ketdi.

수저⁹⁹ - ovqatlanayotganda ishlatiladigan buyum hisoblanib, asosan uning tarkibiga qoshiq va koreys millati milliy tayoqchalarini kiritish mumkin. Qoshiq orqali suyuq taomlar iste'mol qilinsa, tayoqchalar orqali esa 반찬 lar iste'mol qilinadi. Bu 수저 ning ko'rinishi davrlarga qarab o'zgarib, qadimgi va hozirgi 수저 orasida farqlar paydo bo'lgan. Qoshiq haqida gapiradigan bo'lsak, qadimda qoshiqning taomni oladigan qismi barg shaklida bo'lib, dastasi egilgan shaklda bo'lgan. Tayoqchalar esa boshi bilan oxiri bir xil qalinlikda bo'lgan. Hozirda esa tayoqchalarning taomni ushlaydigan qismi yanada ingichkalshgan. Ovqatlanish buyumlari har bir odam uchun muhim buyum hisoblangani sababli, koreys millati

⁹⁷학교재. 리 문화 길라잡이 국립국어연구원, -서울, 2002, -173 쪽.

⁹⁸주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울, 1992, -64 쪽.

⁹⁹학교재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원, -서울, 2002, -198 쪽.

수저 ni o'ziga xos tomonlarini o'ylagan holda boshqalarga sovg'a sifatida berishni ma'qul ko'rib kelmoqdalar.

Masalan:

바닥에 떨어져 소리를 낸다.

수저를 내가 바로 주워 올려보니...무언가가 묻어있는 듯¹⁰⁰.

Yerga tushib ketgan ovoz eshitildi.

Menga sujoni ko'zlarimga tik qarab berdi... nimadir so'ramoqchiligini bildim.

지게¹⁰¹ - odamlar yelkasiga ilib, narsalarni tashish uchun mo'ljallangan buyum hisoblanadi. Bu Koreyada yaratilgan o'ziga xos buyum inson kuchi bilan tashish mumkin bo'lgan yuklarni olib o'tishda katta yordam berib kelgan. U yelka kengligi bilan bir xil bo'lgan yelkaga ilinadigan dasta va tepa qismi tor, pastki qismi kengroq bo'lgan ikki taxta orasidagi qator tushirilgan taxtachalardan iborat. Ko'rinishi jihatidan narvon shakliga o'xshab ketadi. 지게 baquvvat daraxtdan yasalgani tufayli o'zining og'irligidan o'girroq yukni ham ko'tara olgan. 1970 – yillargacha 지게 keng qo'llanilgan buyum hisoblanib, hattoki yuklarni tashib beruvchi 지게꾼 deb nomlanuvchi mahsus insonlar ham paydo bo'lgan. Keyinchalik Koreya rivojlanib yuk tashuvchi mashinalar paydo bo'lib, 지게 yo'qola boshlagan. Hozirda 지게 ni Koreyaning chet viloyatlaridagina ko'rishimiz mumkin.

Masalan:

“살려주십시오, 나리!” 평북 차림의 웬 사내가 목숨을 구걸하는 게 아닌가. 사내 옆에는 지게와 자루가 놓여 있었다¹⁰².

“Qutqaring meni!” degan erkakning baqiriq ovozi aniq yetib kelmasdi. Uning oldida chige va charu turardi.

가마¹⁰³ - qadimda odamlar foydalangan qatnov transportining bir turi hisoblanadi. 가마 odatda juda kichkina uy ko'rinishdagi to'rtburchak quticha shaklidagi tom bilan qoplangan shaklda bo'lgan. Uning yon tarafida ichkariga

¹⁰⁰주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울, 1992, -93 쪽.

¹⁰¹학교재, 리 문화 길라잡이 국립국어연구원, -서울, 2002. -211 쪽.

¹⁰²주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울, 1992, -143 쪽.

¹⁰³학교재. 우리 문화 길라잡이 국립국어연구원, -서울, 2002, -215 쪽.

kiriladigan eshik va orqa va oldi tomonidan chiqib turgan tayoqlar mavjud. Shu chiqib turgan tayoqlarni orqa tomondan 2 kishi, oldi tomondan 2 kishi ko'tarib 가마 ni shu tariqa harakatga keltirishgan. To'y marosimi kuni kelin shundan 가마 ga o'tirib, kuyovni uyiga yo'l olgan. 가마 ning har xil turlari mavjud. 가마 ni odatda yuqori tabaqaga mansub kishilar ishlatganlari sababli, oddiy aholi bunday 가마 lar o'tib ketayotganida uzun va ingichka ovoz bilan ularni yanada e'zozlab, ularni kuchini yanada oshirganlar. 가마 obro' va insoniy qadr-qimmatni saqlab, oliyjanob bo'lib yashab o'tgan koreys millatining ko'rinishini butunlay o'zida jam etgan.

Masalan:

황제로부터 어떤 불호령을 받을지 알 수 없어 가마를 탄 전의와 말을 탄 호위대장은 발에 무쇠덩이를 매달은 것 같았지를 꿈만 췌다¹⁰⁴.

Ot aravasi bandligidan kamaga chiqib, xohlagan joylariga ketib qolishlarni u faqatgina orzu qila oladi.

안방¹⁰⁵ - bu uyning bekasi yashaydigan xona hisoblanib, unda faqat ayollargina istiqomat qilganlari sababli, o'sha ayolning eri va eng yaqin qarindoshlaridan tashqari boshqa begona erkaklarning kirishi qat'iyan man etilgan. Shunchalik shaxsiy xona hisoblangani uchun bu xona darvozadan ancha uzoq joyda uyning eng ichkari qismida joylashgan bo'lgan. Bu xona er-xotin ovqatlanib, uxlaydigan joy hisoblanib, ba'zi- ba'zida mehmonlar ham kutilgan. Bundan tashqari bu xonada oila a'zolarining kiyimlari va yotoq anjomlatini saqlash ham mumkin bo'lgan. Shunday qilib koreys millatining 안방 i har xil vazifalarni bajaruvchi joy hisoblanadi. Lekin hozirgi kunga kelib, uning ma'nosi butunlay o'zgarib ketdi. Hozirda 안방 faqatgina er-xotin istiqomat qiladigan xonaga aylanib qoldi.

Masalan:

우리 집 안방과 달리 재하네 안방을 채운 가구들은 모두 키가 작았다¹⁰⁶.

Bizning uy anpangidagi barcha anjomlarning o'lchamlari kichkina edi.

¹⁰⁴주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울, 1992, -107 쪽.

¹⁰⁵학고재. 리 문화 길라잡이 국립국어연구원, -서울, 2002, -175 쪽.

¹⁰⁶주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울, 1992, -113 쪽.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Koreys tilida eng murakkab, sintaksis va morfologik jihatdan ko'p funktsiya bajaruvchi so'z turkumi bu otdir. Koreys tilidagi ot so'z turkumi semantik jihatdan ham chuqur tahlil qilinadi. Madaniyatlararo muloqatda esa koreys milliy – madaniy so'zlarining o'rni beqiyosdir. Olib borilgan tadqiqot natijalariga quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tevarak – atrofimizdagi barcha jism, predmet, hodisa, shaxslarni nomlab keluvchi so'z turkumi otdir.

2. Koreys tilidagi ot so'z turkumida rod tushunchasi yo'qligi, egalik qo'shimchalari bilan turlanmasligi bilan boshqa tillardagi ot so'z turkumlaridan farq qiladi.

3. Koreys tilidagi ot so'z turkumiga ko'plik qo'shimchasini qo'shmasdan ham ko'plik ma'noda qo'llash mumkin.

4. Koreys tilidagi ot gapda barcha gap bo'laklari rolda keluvchi yagona so'z turkumidir.

5. Koreys tilidagi ot so'z turkuminining semantik jihatlarini uning grammatik xususiyatlaridan ajratgan holda o'rganish mumkin emas.

6. Koreys tilidagi ot so'z turkumini koreys tilshunoslari turlicha tasniflagan bo'lsalar – da, ularning umumiy jihatlarini quyidagichadir. Koreys tilidagi ot so'z turkumi mustaqil va tobe, atoqli va turdosh, jonli va jonsiz, sanaladigan va sanalmaydigan, aniq va mavhum otlarga bo'linadi.

7. Mustaqil, turdosh, jonli va jonsiz, aniq otlarni ham o'z navbatida sanaladigan va sanalmaydigan guruhlariga bo'lish mumkin.

8. Jonli va jonsiz otlarga esa o'z navbatida, mustaqil, atoqli va turdosh, sanaladigan va sanalmaydigan, aniq va mavhum otlarni kiritishimiz mumkin.

9. Koreys tilidagi ot so'z turkumini semantik tahlil qilish jarayonida uni mustaqil va tobe, sanaladigan va sanalmaydigan, jonli va jonsiz turlarga bo'ldik. Bu guruhlar ot so'z turkumining grammatik jihatlarini ham ochib beradi. Chunki ular qo'shimchalarning qo'shilishi yoki qo'shila olmasligi, gapda mustaqil qo'llanila olishi yoki olinmasligi bilan bir – biridan farq qiladi.

10. Koreys tilidagi ot so'z turkumini biz lug'aviy – ma'noviy to'dalarga va ularning tarkibidagi lug'aviy-ma'noviy guruhlariga bo'ldik.

11. Atoqli otlar lug'aviy – ma'noviy guruhlariga bo'linishi jihatidan shaxs, joy, tarixiy voqea – hodisa, bayramlar, ovqat nomlari, samoviy jismlar, mahsulot nomlariga bo'linadi.

12. Koreys tilidagi turdosh otlar semantik jihatdan eng ko'p irmoqqa ega. Chunki uning ham lug'aviy-ma'noviy to'dalari va ularning tarkibidagi lug'aviy – ma'noviy guruhlari juda ham ko'p.

13. Koreys tilidagi turdosh otlarni biz hayvon, inson, tashkilot, joy, aniq, tana-a'zolari, holat, joylashuv, vaqt otlari, miqdor otlari, moddalar nomi, mavhum otlar, harakat nomi otlari, harakat nomlari, ish olib borish nomlari, tasvirlash otlariga bo'lish mumkin.

14. Koreys milliy-madaniy so'zlarni taomlariga oid so'zlar, kiyimlariga oid so'zlar, hayot tarziga oid so'zlar, bayramlari va urf- odatlariga oid so'zlar guruhiga bo'lishimiz mumkin.

15. Bunday so'zlar tarjima jarayonida o'z shakli, ma'nosi va xususiyatini o'zgartirib yuboradi. Chunki bular boshqa tillarda teng ekvivalenti yo'q so'zlar hisoblanadi.

16. Koreys millatining ovqatlari pishirilishiga ko'ra yil fasllari, bayramlar, inson jamiyatda tutgan o'rniga ajratib pishirilgan. Koreys ovqatlari koreys millatining tarixiy xotirasidir.

17. Koreys millatining madaniyatini yanada chuqurroq ochib bera olish xususiyatiga ega so'zlar – kiyimlardir.

18. Koreys milliy kiyimlari, turmush tarzi va bayramlari koreys millatining tarixiy boyligidir. Milliy kiyimlarga va bayramlariga qarab, o'tmishda erkak va ayol kishining ijtimoiy vaziyatini, oilaviy holatini, yashash-turmush tarzini bilish mumkin bo'lgan. Bunda ham insonlar tabaqalashuvi ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbek tilidagi adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T. Ma'naviyat. - 2008.
2. Boltayeva G. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T: Navoiy 2009.
3. Jo In – hwa. Koreys tili grammatika lug'ati. – T: KOICA 2011.

Rus tilidagi manbalar:

4. И Ги Мун. Происхождение корейского языка. - Сеул. - 2003.
5. И Ик Соп. История корейского языка. - Сеул. - 2003.
6. Ким В.Н., Чой Со Ёнг. Иероглифика. - Т., ТашГИВ. - 2009
7. Ким Е.В. Теоретические и практические вопросы перевода основного восточного языка (корейский язык). - Т., ТашГИВ. - 2011.
8. Ким Е.В. Теоретические и практические вопросы перевода. - Т., ТашГИВ. - 2013
9. Корейский язык. - Санг. Т., ТашГИВ. - 1995
10. Корейский язык. - Ха. Т., ТашГИВ. - 1995
11. Куротченко К.Б. Корейский язык. – Москва. – 2008.
12. Холодович А.А. Очерк грамматики корейского языка. – Москва. – 2003.

Koreys tilidagi adabiyotlar:

13. 2009 학습 전문가용 어미/조사 전문가용 사전. 한국 문화. - 서울. - 2006.
14. 간견애. 인간의 문제. – 서울. - 1970.
15. 강신재. 젊은 느티나무. - 서울. - 1991.
16. 권비영. 덕혜옹주. - 서울. - 2014.
17. 김동리. 무녀도. - 서울. - 1993.
18. 김동인. 감자. - 서울. - 1987.
19. 김유정. 소낙비. - 서울. - 1988.
20. 김정한. 모래톱 이야기. - 서울. - 1994.

21. 김태준. 한소설의 역사. -서울. -1975.
22. 김훈. 칼의노래. -서울. -2014.
23. 노마 히데키. 한국어 어휘와 문법의 상관구조. -서울. -2002.
24. 박종화. 임진왜란. -서울. -2014.
25. 사감과 러브레터. 현진건. -서울. -2014.
26. 서정인. 강. -서울. -1987.
27. 신개정. 외국인을 위한 한국어문법. 서울. 발행연세대학교출판부. -1997.
28. 신경숙. 엄마를 부탁해. -서울. -1990.
29. 안수길. 제삼 인간형. -서울. -1992.
30. 오세영. 원행. -서울. -2013.
31. 오영수. 갯마을. -서울. -1996.
32. 용법편. 외국인들 위한 한국어 문법 1. - Seoul. -2003.
33. 용법편. 외국인들 위한 한국어 문법 2. - Seoul. -2006.
34. 이 익 섭. 한국어 문법. Seoul. 서울대학교출판부. -2006.
35. 이광수. 꿈. -서울. -1983.
36. 이기연. 10 년 후에. - 서울. -1999.
37. 이기영. 민촌. -서울. -1992.
38. 이분며. 젊음. - 서울. -1980.
39. 이습. 우화로 통해 본 이습의 생애. -서울. -1992.
40. 이원호. 보스. -서울. -2014.
41. 이정명. 바람의화원. -서울. -2014.
42. 이정명. 뿌리깊은나무. -서울. -2014.
43. 이정명. 뿌리깊은나무. -서울. -2014.

44. 이태준. 복덕방. -서울. -1992.
45. 이희자,이종희. 2009 현장비평가가 뽑은 올해의 좋은 소설 백가흠/그리고 소문은 단련된다. -서울. -2010.
46. 입센. 바다에서 온 여인. -서울. -1991.
47. 정영문. 어떤작위의 세계. -서울. -2014.
48. 조세희. 난장이가 쏘아올린 작은 공. -서울. -1990.
49. 조앤 롤링. 해리포터 시리즈. -서울. -1989.
50. 조지 오웰. 동물농장. -서울. -1994.
51. 주요섭. 사랑 손님과 어머니. -서울. -1992.
52. 채우도. 아이리스 시리즈. -서울. -2000.
53. 천명관. 고래. -서울. -2014.
54. 츠츠이 야스다카. 시간을 달리는 소녀. -서울. -2000.
55. 학교재. 우리 문화. -서울. -2002.
56. 한국어 어미의 뜰과 썸. Seoul. 연세대학교출판부. -2002.
57. 현지건. 빈처. -서울. -1996.
58. 현진건. 고향. -서울. -1996.
59. 홍태식. 봄봄. -서울. -1992.
- Foydalanilgan lug'atlar:**
60. 관용어사전. -서울. -1996.
61. 국어사전.-서울.-1995.
62. 새한노사전. -한국외국어대학교출판부.- 2008.
63. 조선일보사. -서울. - 1991.
64. 한리사전.-서울.-1997.
65. O'zbekcha-koreyscha lug'at.-Samarqand Davlat chet tillari instituti. - 2008.

66. Ким М.У, Ким Ч.С. Корейско-русский словарь. Ташкент.-2002

67. Ким М.У, Ким Ч.С. Корейско-русский словарь. Ташкент.-2002

Foydalanilgan internet saytlari:

68. <http://blog.naver.com>

69. <http://daum.net>

70. <http://idrama.u>

71. <http://jyosio.com.ne.kr>

72. <http://www.sijomunhak.com>

73. www.google.com.

74. www.google.ru.

75. www.naver.com

76. www.organization.kr.or.

77. www.riss.co.kr

78. www.teenkorean.co.kr

79. www.wikipedia.org